

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI
BUXORO FILIALI**

GIDROMELIORATSIYA FAKULTETI

«YER TUZISH VA YER KADASTRI» KAFEDRASI

**«Yer resurslari kartalarini ishlab chiqish va ularni jihozlash»
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «5410700-Yer tuzish va yer
kadastrini» ta'lim yo'nalishi bitiruvchi 4
kurs talabasi
A.Amrulloev _____

ILMIY RAXBAR:
Ass. J. J. Pirimov _____

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____ sonli bayonnomasi «_____» _____ 2016 yil

Buxoro – 2016 yil.

- 1 Kirish.
- 2 **I-bob. Yer resurslaridan foydalanishda dunyo mamlakatlari tajribalari.**
- 3 1.1. Yer resurslari va undan foydalanish samaradorligi.
- 4 1.2. Dunyo mamlakatlarida yer resurslarini boshqarish tajribasi.
- 5 **II-bob. O‘zbekistonda yer resurslaridan foydalanish va uning holati.**
- 6 2.1. O‘zbekiston Respublikasi yer fondi.
- 7 2.2. O‘zbekistonda yer resurslaridan oqilona foydalanish.
- 8 2.3. Yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning nazariy asoslari.
- 9 **III-bob. Yer resurslari kartalarini ishlab chiqish va ularni jihozlash.**
- 10 3.1. Yer resurslari kartalarini tuzishning metodologik asoslari.
- 11 3.2. Yer resurslari kartalarini yaratishning zamonaviy metodlari.
- 12 3.3. Yer resurslarini boshqarish va rejalashtirish amaliyotida kartografik tadqiqot usulini qo‘llashni takomillashtirish yo‘llari (GIS texnologiyasi asosida).
- 13 Xulosa.
- 14 Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.
- 15 Ilovalar.

Kirish

Hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biri – mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, uning barcha sohalarini rivojlantirishning asosi bo‘lgan ilmiy-texnik salohiyat va mintaqalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlash hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hamda mavzuli kartografiyaning asosiy masalasi ham aynan shu dolzarb muammolarning yechimlarini topishga qaratilgan. SHu maqsadda mamlakat milliy iqtisodiyotini shakllantirishda yetakchi o‘rin tutgan yer resurslarini boshqarish va samarali foydalanishga katta e‘tibor berish talab etiladi.

Yer resurslarini boshqarish va samarali foydalanish yo‘llari va usullari juda ko‘p bo‘lib, ularni amalga oshirishda mavzuli kartografiyaning roli ham katta. SHu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, mustaqillik yillarida ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning, shu jumladan, yer resurslarining ham umumiy tavsifdagi karta va atlaslari yaratildi. Turli mazmundagi va miqyosdagi kartalar jamiyatning modernizatsiyalashuvi va iqtisodiy jarayonlarning yanada erkinlashuvini ko‘rgazmali tarzda aks ettirishi bilan birga kechayotgan jarayonlarning mazmun-mohiyatini ko‘rsatib berish, rivojlantirish va bashoratlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Hozirgi kunda Yer resurslaridan samarali foydalanish va boshqarishni rivojlantirish muammolarini hal etishda respublika mintaqalariga alohida e‘tibor qaratish zarur. Ayniqsa, O‘zbekistonning shimoliy hududida joylashgan Buxoro, Xorazm viloyatlarida bu masala alohida ahamiyatga molikdir. CHunki bu yerda shu hududga xos bir qator jiddiy ekologik muammolar yuzaga kelgan. Ular mintaqadagi Orol dengizi suv sathining keskin pasayib borishi, cho‘llanish jarayonining kuchayganligi, yer osti suvlari sathining ko‘tarilganligi, tuproqlar sho‘rlanish darajasining oshib borayotganligi, dehqonchilikda ekinlar hosildorligining kamayishi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ekin maydonlarining qisqarib borishi, qishloq xo‘jaligini yuritishda ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi kabilarda o‘z aksini topmoqda. Ushbu muammolarni ilmiy asosda hal etishda qishloq xo‘jaligi sohalarini kartalashtirishning ahamiyati juda

katta. SHu nuqtai nazardan yer resurslarining hozirgi holatini miqdor va sifat ko'rsatkichlariga bog'lab, ko'rgazmali tarzda atroflicha tahlil qilishda kartografik metoddan foydalanish, tizimli yondashuv asosida mavzuli turkum karta va atlaslarni yaratish, ularni ishlab chiqarishga joriy etish yo'llarini aniqlash zarurligi mazkur ishining dolzarbligini belgilab beradi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining ilmiy-tahliliy xulosalari, unda ishlab chiqilgan tavsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi. Olib borilgan tadqiqot ishining natijalari va yaratilgan yangi tipdagi kartalar, ularning nazariy-uslubiy asoslaridan respublikamizning boshqa hududlarida ushbu yo'nalishdagi ilmiy-amaliy vazifalarni bajarishda foydalanish mumkin.

I-bob. YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA DUNYO MAMLA- KATLARI TAJRIBALARI.

1.1. Yer resurslari va undan foydalanish samaradorligi.

Sugʻorilib dehqonchilik qilinadigan yerlar bu nafaqat respublikamiz, balki barcha dunyo halqlarining bebaho boyligi, bitmas-tuganmas xazinasini hisoblanadi. Chunki iqtisodiy ehtiyojimizni qondiradigan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari aynan shu yerlar hisobiga olinadi. Zero, u nafaqat bugunning, balki kelajakning ham rizq-roʻzi manbaidir.

Maʼlumotlarga qaraganda, 1960 yildan to hozirgi kunga qadar dunyo boʻyicha haydalma yerlar maydoni atigi 8% gagina, ushbu davr mobaynida esa aholi surʼati 3 mlrd. dan 6,4 mlrd. gacha oshgan. Aholi sonining uzluksiz haybatli oʻsishi va haydalma yerlarning bunday oʻzgarish miqdoridan ushbu yerlarning insoniyat oldida qanchalik qadr-qiyamatga ega ekanligini anglab olish qiyin emas. Hozirda biz bunday yerlar maydonini oshirish u yogʻda tursin, balki mavjudlarini ham asray ololmayapmiz. Buning eng asosiy sabablaridan biri - tuproq shoʻrlanishi, yaʼni tuproqda tuz toʻplanish va ikkilamchi shoʻrlanish jarayonlarining kuchayib, tuproqda suv - tuz tartiboti va organik moddalar balansida salbiy holatlarni shakllanishi va natijada yerlarning meliorativ-ekologik holatlarini yomonlashishi bilan birga, suv - shamol eroziyasi, tuproq zichlanishi, oziq elementlarni yoʻqotilishi, texnika asrining zaharli ximikatlarini tuproqqa kelib tushishi bilan ham bogʻliqdir.

Mamlakatlar va qitʼalar boʻyicha koʻpdan-koʻp faktlarga asoslangan materiallarni umumlashtirish natijasi shuni koʻrsatdiki, tuproq qatlamining (biosfera, biogeokimyo, gidrosfera, atmosfera, gumusosfera, antroposfera yoki texnosfera qatlamlari) butun yer yuzi miqyosidagi funksiyalari tuproqqa aniq maqsadni koʻzlab bevosita taʼsir oʻtkazish natijasida ham, shuningdek, gʻoyat xilma-xil qoʻshimcha, ikkinchi darajali, koʻpincha kutilmagan salbiy ekologik holatlar natijasida ham inson faoliyatining taʼsiri ostida nixoyatda kuchli darajada oʻzgarib

bormoqda. Mana shu ta'sirning ko'lamlari to'g'risida qo'yidagi ma'lumotlar bo'yicha ko'rish mumkin. yer kurrasidagi quruqlikning umumiy maydonidan hozirgi vaqtda jahon dexqonchiligida salkam 1,5 milliard gektar (quruqlikning 10 foizi) doimiy shudgorlanib turiladi, dehqonchilik madaniyatning 10 ming yillik tarixi mobaynida avvallari mahsuldor bo'lgan 2 milliard gektarga yaqin yerdan batamom mahrum bo'lindi, cho'l-biyobonlarga aylantirildi, har-xil inshootlar qurildi, suv ostida qoldirildi: salkam 1 milliard gektar yer dehqonchilikka yaroqli holda turibdi: hozirgi vaqtda har yili mutlaqo yo'q bo'layotgan hosildor yerlar 6-7 million gektarni tashkil qiladi, ya'ni o'rtacha tarixiy ko'rsatkichlarga nisbatan 30-35 baravar ko'paydi. Endilikda bu ekologik jihatdan xatarli hodisaga aylanib bormoqda, bu esa jahon ilmiy jamoatchiligining, rasmiy halqaro organlari, shu jumladan, BMTning ham jiddiy diqqat-e'tiborini jalb etdi. Tuproq qatlamining zavol topishi va nobud bo'lishiga qarshi kurash muammosini akademik V.A.Kovda qayd etishicha, urush va yadroviy halokatlar muammosidan keyingi barcha dunyo ekologik muammolari orasida birinchi o'ringa chiqmoqda.

O'zbekiston tabiiy-iqlim sharoitlarining – iqlim, relef, tuproq paydo qiluvchi jinslar, gidrologik holatlari murakkabligi bu yerda tuproqlarning xilma xil bo'lishini va qishloq xo'jaligida foydalangan yerlarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Tuproqlarning to'rtidan uch qismini (76,6%) cho'l zonasida tarqalgan, ular asosan sur-qo'ngir tusli, cho'l qumli tuproqlar va qumlar (31,3%). Tog' va tog' oldi zonalar tuproqlari 23,4%ni tashkil qilib, u yerda bo'z tuproqlar (15%), gidromorf tuproqlar, jigarrang, och-tusli qo'ngir baland tog' tuproqlar tarqalgan.

Tuproqlarning qishloq xo'jaligida foydalanishi, ularning joylashgan hududiga, relefiga, gidrolik sharoitiga va boshqalarga bog'liqdir.

O'zbekistonning yerlaridan qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar, ya'ni respublika yer fondini 58,1% tashkil etadi.

Yaylov va pichanzorlar, shu jumladan, sug'oriladi-ganlari 22263,4 ming ga (2010 yil 1 yanvar), haydalma yerlar 4056,6 ga, shu jumladan, sug'oriladiganlari 3313,6 m ga, ko'p yillik daraxtzor yerlar, shu jumladan, sug'oriladiganlari 337,1

ming ga.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarni ilmiy asoslangan tarzda hisobga olish, oqilona foydalanish, baholash imkonini yer kadastri beradi. yer kadastri quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: erga egalik qilish va yerdan foydalanishni ro'yxatdan o'tkazish; yerlarning miqdoriy hisobi; yerlarning sifat bahosi – bonitirovkasi; yerlarni iqtisodiy baholash.

Tuproqlarni har tomonlama yaxshilash, uning unumdorligini va iqtisodiy samaradorligini oshirish qishloq xo'jaligi kelgusidagi rivojining muhim masalalaridan biridir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni oshirish yerdan to'g'ri va samarali foydalanish bilan bog'liqdir.

1.2. Dunyo mamlakatlarida yer resurslarini boshqarish tajribasi

MDH davlatlarida yer kadastri asosan respublikamizda yuritilayotgan davlat yer kadastrining tamoyillariga hamda vazifalariga yaqin uslubda olib boriladi. Ammo shu bilan bir qatorda ba'zi bir xususiyatlarga egadir. Bunday xususiyatlar asosan MDH davlatlarida yer maydonlarining bir qismini xususiylashtirilganligi, to'g'ridan – to'g'ri bozor munosabatlariga tortilganligi bilan bog'liqdir.

Rossiya federatsiyasida yer kadastrini yuritish, asosan, yer resurslari va yer tuzish Davlat ko'mitasiga yuklatilgan. Davlat qo'mitasi o'z faoliyatini Rossiya Federatsiyasining Konstshutsiyasiga, qonunlariga, Prezident farmonlariga, Davlat dumasining va Rossiya Federatsiyasi hukumatining qarorlariga muvofiq holda amalga oshiradi.

Rossiya Federatsiyasi yer resurslari va yer tuzish Davlat qo'mitasining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- yerlardan oqilona foydalanish va yerlarni muxofaza qilish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, atrof muhitni yaxshilash bo'yicha davlat siyosatini o'tkazish;
- yerlarni xususiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni tashkil etish va o'tkazish;

- yerdan foydalanish va muxofaza qilish bo'yicha davlat nazorati;
- davlat yer kadastri va monitoringini yuritish;
- yer tuzish, davlat yer kadastri va monitoringi ishlarini tashkil etish va o'tkazish;
- federal va boshqa yerlar to'g'risidagi ma'lumotlar bankini yuritish;
- yerdan oqilona foydalanish va xo'jalik yuritishning barcha shakllarini rivojlantirishning iqtisodiy manfaatdorligi bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish.

O'ziga yuklatilgan yuqoridagi vazifalarga mos holda Rossiya Federatsiyasi yer resurslari va yer tuzish davlat qo'mitasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- yer munosabatlarini tartibga solish bo'yicha davlat siyosatining bosh yo'nalishlarini ishlab chiqadi;
- yer munosabatlarini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan maqsadli davlat dasturlar, qisqa va uzoq muddatli bashoratlarni ishlab chiqishda katnashadi;
- yerdan oqilona foydalanish va ularni muxofaza qilish davlat dasturlarini ishlab chiqadi;
- yer tuzishni o'tkazish, davlat yer kadastri va monitoringini yuritish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;
- yerdan foydalanish va ularni muxofaza qilishning davlat nazoratini amalga oshiradi;
- yerdan foydalanish va ularni muxofaza qilish bo'yicha ilmiy - uslubiy hamda moddiy-texnik tadbirlarni ta'minlaydi;
- yerdan foydalanish va ularni muxofaza qilish uchun topografo-geodezik, kartografik, tuproq, agrokimyoviy, geobotanik va boshqa tadqiqotlar ham. qidiruv ishlarini tashkil etadi va o'tkazadi;
- yer solig'i stavkalari va yerlarning me'yoriy qiymatlarini aniqlash, shuningdek, yerdan oqilona foydalanish va ularni muxofaza qilishning iqtisodiy manfaatdorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;
- yer resurslarining miqdori va holati to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona bankini yaratadi;

- yer tuzish va yer kadastr xizmati uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakalarini oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- ilmiy-texnik va iqtisodiy hamkorlikni tashkil etadi va hokazolar. Ilmiy-tarixiy manbalar shundan guvohlik beradiki, Rossiyadagi kadastr to'g'risidagi birinchi ma'lumotlar X asrga taalluqli bo'lib, u ham bo'lsa yer solig'ini yig'ish va yerlarni baholash ishlari bilan bog'liqdir.

Kadastr chegaralash va yerlarni ajratish uchun xaritalash bo'yicha ishlarni yuritish to'g'risidagi birinchi qaydlar 1843 yilga taalluqlidir. Rossiya yer kadastridagi kartografik materiallarda asosan ro'yxatlash, chegaralash va kuzatish daftarlaridan olingan ma'lumotlar bo'lgan. Bu ma'lumotlar, asosan, joyda yerlarni o'lchash natijalari bo'yicha tuzilgan. Yerlarni o'lchash ishlari «o'lchov iplari» (iplar 20,40,80 sajenli, 1 sajen=2,1336 m) yordamida amalga oshirilgan. Yerlar si-fati bo'yicha «yaxshi», «o'rtacha» va «yomon» ga ajratilgan.

XVIII asrning o'rtalariga kelib yerlarni chegaralash ishlari yer egalarning huquqlarini himoya qilish maqsadlari uchun ancha kengaytirildi. 1765 yili yerlarni davlat chegaralashi to'g'risida komissiya tasdikdandi. Rossiya imperiyasining yerlarini chegaralash bo'yicha ishlar asosan XIX asrning boshlariga kelib yakunlandi. XVII asrning oxiriga kelib Rossiyada qishloq xo'jalik yerlari va o'rmon fondi yerlari emas, hatto shahar hovlilarini ham qayd qilish va hisobini yuritish xujjatlari tuziladigan bo'ldi.

Yerga va boshqa tabiiy resurslarga davlat mulkchiligining vujulga kelishi munosabati bilan ularning va boshqa obyektlarning holati to'g'risidagi ma'lumotlarning bir tizimga keltirilgan to'plami sifatida kadastr turli mintaqalar va yaxlit mamlakatni markazlashgan iqtisodiy boshqaruvning muhim bir mexanizm sifatida namoyon bo'lishi zarur edi. Shuning uchun ham tabiiy resurslarning tur-laridan qat'iy nazar Rossiyada yaratilgan barcha kadastrlar davlatning tadbiri bo'lib qolaveradi va ular yagona, ammo bir tarmoqning har bir resursga bo'lgan talabiga mos o'tkaziladi.

Kadastr dunyoning barcha mamlakatlarida yuritiladi. U hisob-kitob, baholash, turli tabiiy resurslar, injenerlik faoliyatlari va ekologik holat tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir. Chet el amaliyotida "kadastr" tushunchasini ko‘pincha "ko‘chmas mulk" tushunchasi bilan bog‘laydilar. Ayrim manbalar unga "yer uchastkalarining miqdori, qiymati va mulkchiligi bo‘yicha ma’lumotlarni o‘zida jamlagan "ijtimoiy qaydnoma" qoidasini beradilar, boshqalari esa "arxiv bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan, chegaralarni tasvirga olish va xaritada grafik yoritilgan mulkning holati, huquqi, tabiati, o‘lchamlari va foydalanishiga asoslangan barcha ko‘chmas mulkning ijtimoiy uslubiy tashkil etilgan inventari" qoidasini beradilar. Bunda ko‘chmas mulk deb uning ustki qismi bilan birgalikda yerni hamda atrof-muhitni, havo kengligini, tuproq ostini, bino va inshootlarni, turli-tuman tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklarni tushunish mumkin.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida yuritilayotgan kadastrni o‘z mohiyati bo‘yicha uchta katta toifaga bo‘lish mumkin: soliq yoki fiksallik -soliqqa tortish tartibi va miqdorlarini aniqlash maqsadida ko‘chmas mulkni tavsiflash uchun; huquqiy yoki yuridik - mulk egaligi huquqlarini himoya qilish uchun; ko‘p maqsadli - keng spektrdagi huquqiy, iqtisodiy, ekologik, qurilish masalalari, shuningdek, hududni rivojlantirishni boshqarish va rejalashtirish muammolarini hal qilish. Ko‘p maqsadli kadastr o‘z ichiga turli tipdagi ob’yektlar: yer, o‘rmon va boshqa tabiiy resurslar, infratizimlar, ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oladi.

Yuqorida berilgan ma’lumotlar va uslublarni taxlil qilish respublikamizda yuritilayotgan yer kadastrini nazariy, uslubiy va amaliy jihatdan rivojlantirish imkonini beradi.

G‘arbiy Yevropa davlatlarining kadastr tizimi umumiy jihatdan bir xildir, ya’ni uchastkalar registrini yuritish, kadastr xaritalar tuzish va huquqiy yozuvlarni yuritish. Rivojlangan davlatlarda, yer egaliklarini hisob qilish texnikasi turlichadir, shunga qaramasdan ko‘chmas mulk uchastkalarining reyestri har bir mamlakatda mavjud. Bunday reyestr, odatda, yerlarni ro‘yxat qilish yer kitobi yoki uning tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin. Kadastr uchun tasvirga olishning majmuasi sifatidagi va yerlarni ro‘yxatga olish qoidasiga binoan yagona tashkiliy xizmatni yaratadi.

Ba'zi hollarda bu xizmat turlicha yo'nalishlarda ish bajaradi, ammo ma'lumotlarni almashishda, o'zaro nazoratni va ko'p maqsadli kadastrini yaratishda ular o'zaro birlashishadi. G'arbiy Yevropa davlatlarida kadastr tizimining umumiy belgisi shundan iborat bo'lib, ular ma'lumotlarni doimiy ravishda yangilanib turishini ta'minlaydilar. Yerdan foydalanish ma'lumotlar tizimi uchun yagona kafolatdir. Ularning umumiy belgilariga ro'yxatga olish ma'lumotlarini yuritish texnikasining o'xshashligini kiritish mumkin. Qoidaga binoan, yer uchastkasi yerdan foydalanishning tiplari, maydoni, unda joylashgan qurilmalarning turlari, joylashgan o'ri, egasi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa registrlarga murojaat qilish hamda hudud va uning egasi to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni o'zida jamlashi bilan tavsiflanadi. Bunday turdagi ma'lumotlar boshqa ma'lumotlar bilan birgalikda mulkdorlik hamda ular egaligidagi yer uchastkalari to'g'risidagi ko'p qirrali ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

UmumYevropa tushunchasi bo'yicha ingliz kadastr tizimi yuqoridagi umumiy qoidalardan farq qiladi. Angliyada kadastr faqatgina kartografik ma'lumotlardan iborat bo'lib, asosan yer uchastkalarining chegaralari hamda ko'chmas mulkning tarkibi to'g'risida ma'lumot beradi. Yevropaning boshqa davlatlaridagi kadastr tizimlari belgilarining bir xilligi shu bilan tushuntiriladiki, ular to'g'ridan-to'g'ri yoki qisman fransuz namunasi asosida vujudga kelgan.

Fransuz kadastr tizimining bosh maqsadi yerlarni soliqqa tortishni ta'minlashdan iboratdir. Hozirgi kungacha u fiskal tizim sifatida xizmat ko'rsatadi: uning ma'lumotlari turli xil - yer va ko'chmas mulkka taallukdi bo'lgan mulk soliqlarini hisoblash asosi hisoblanadi. Ammo Fransiyada barcha huquqiy qo'shilmalar bilan birgalikda yer ro'yxati mamlakatning butun hududi bo'yicha tizimli ma'lumotlar bilan to'la ta'minlay olmaydi. Parij, Lill, Marsel kabi yirik shaharlar o'z hududlarining xususiy ko'p maqsadli kadastr tizimlarini yaratgan.

Germaniyada soliq kadastrdan rivojlangan holda yuridik tizimning bir qismi sifatida rasmiylashgan kadastr tizimi mavjud bo'lib, u yer egaliklari va yerdan foydalanish hamda topografik tasvir ma'lumotlarining funksiyalari to'g'risidagi keng ko'lamdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. G'arbiy Germaniyada 1935 yilda yuz

bergan yer tuzishning barcha informatsion tizimini qayta tashkil etish, keyinchalik esa, 1945 yildagi mamlakatni urushdan so‘nggi qayta qurish mavjud kadastr tizimining qayta ko‘rib chiqilishini talab qildi. Kadastr xaritalarini ishlab chiqish yerdan foydalanish va yer tuzishga taallukli bo‘lgan ma‘lumotlarni qayta ishlash bilan birlashtirildi. 1970 yildan okruglar va yirik shaharlar yerlarida yer kitoblaridagi, ko‘chmas mulk kadastr, soliq kadastr va kartografik materiallardagi ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan ko‘chmas mulk to‘g‘risidagi avtomatlashtirilgan ma‘lumotlar bazasi yaratildi. Germaniyadagi turli informatsion xizmatlar o‘rtasidagi o‘rnatiladigan aloqalar natijasida yer va ko‘chmas mulk to‘g‘risidagi ko‘p maqsadli avtomatlashtirilgan ma‘lumotlar banki shakllantiriladi. Boshqa avtomatlashtirilgan ma‘lumotlar banki bilan birgalikda bu bank umummilliy informatsion tizimni tashkil qiladi. Bu tizim yerdan foydalanishni, ko‘chmas mulkni hududiy rejalashtirish va iqtisodi bilan bog‘liq keng muammolarni hal qiladi.

Gollandiya kadastr xizmati erga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan, ammo qonun bo‘yicha ko‘chmas mulkka kiradigan bir qancha qo‘shimcha ma‘lumotlarning ro‘yxatini yuritib borishga mas‘uldir. Masalan, kemalar, samolyotlar va ularning egalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar. Kadastr ma‘lumotlarini bu kabi kengaytirilishi bir qator fuqarolik statistikasi («ochiq kadastr» konsepsiyasi) yo‘nalishlari xizmatini yoyish majburiyatini yuklovchi qonun bilan bog‘liqdir.

Shvetsiya kadastr astasekinlik bilan ko‘chmas mulk to‘g‘risidagi avtomatlashgan milliy ma‘lumotlar bankini aholi, iqtisodiy statistika, soliqqa tortish va ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar banki bilan qo‘shilib ketishi natijasida yer va ko‘chmas mulk to‘g‘risidagi ko‘p maqsadli informatsion tizimga aylantirildi. Bu davlatlarda yer kadastr ikkita registrdan iborat holda yuritiladi. yer va ko‘chmas mulk. 1936-1974 yillari 1:10000 masshtablardagi fotoplyonkalar asosida ishlab chiqilgan hamda yer uchastkalari va binolar chegaralarini yagona qayd qilish tizimiga asoslangan mamlakatning butun hududini kamrab olgan kadastr xaritalarining milliy fondini yaratish dasturi amalga oshirilgan. 1974 yildan boshlab bu maqsadlar uchun 1:2000 masshtabdagi kadastr xaritalaridan foydalanildi. Ularni tuzish uchun ma‘lumotlar asosan ko‘chmas mulk to‘g‘risidagi umumdavlat

avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bankidan foydalaniladi. Tig'iz qurilgan shaharlar hududining kadastr xaritalari tuziladi yoki mahalliy munitsipal xizmatga buyurtma beriladi, ular 1:500 gacha kattalikdagi masshtablarga ega bo'ladilar.

Shvetsiya singari Norvegiya kadastr ham egaliklar, manzillari va binolar tiplari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan informatsion kadastr tizimiga birlashtirilgan. Turli guruh ma'lumotlar bir-birlari bilan bog'langan hamda koordinatali yoki ob'yektlarning indentifikatsion kodlari orqali geografik jihatdan ajratish mumkin. Norvegiyada ham Shvetsiya singari ob'yektlarni qayd qilish standartlari ular o'rtasidagi informatsion aloqalar qonun bilan belgilangan. Tizimning o'zi esa davlat tomonidan nazorat qilinib, ularni ishlab chiqish va qo'llash davlat tomonidan moliyalanadi. Finlandiyada obektni kadastr baholash ishlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyati, qishloq hududlarining registri davlat tomonidan, shaharlar hududining registri esa munitsipal ma'muriyat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Yaqin kelajakda umummilliy elektron informatsion tizimga o'tishi natijasida yuqoridagi farq ham barham topadi.

Janubiy Yevropa davlatlaridan hisoblangan Italiyada yuritiladigan kadastr Markaziy Yevropada tarkalgan tizimga o'xshashdir. Kadastrni (er uchastkalarining registri) yer egalari to'g'risidagi (er registri bilan) ma'lumotlar bilan bog'liqligi faqatgina mulk egalari ismlaridan foydalangan holda mumkin bo'ladi. Avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bankini kiritish asosida ushbu ikkita registrni birlashtirish ro'yxatga olish tizimiga ham o'zgartirishlar kiritishni talab qiladi. Italiya kadastrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, bu yerda 1939 yildan buyon binolarning registri tizimli tarzda yuritilib kelinmokda.

AQSHda yerlarni o'rganish qishloq xo'jalik vazirligidagi tuproqlarni muxofaza qilish maxsus xizmati tomonidan olib boriladi. U markaziy organdan, shtatlardagi filiallardan va tuproqni muxofaza qilish bo'yicha 2400 ga yaqin bo'linmalardan tashkil topgan. Tuproqni muxofaza qilish xizmati tuproq qatlamlarini o'rganishga katta ahamiyat beradi. Ushbu materiallar yerlarni tasniflash orqali qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun foydalaniladi. Bu xizmat tuproq kuzatuvlarini amalga oshiradi, yerlardan oqilona foydalanish to'g'risidagi zarur tavsiyanomalar-

ni va qarorlarni chop etadi. Tuproq kuzatuvlari ma'lumotlarini amaliy zaruriyat uchun foydalanish maqsadida jamlash asosida yerlarni tasniflash amalga oshiriladi. Qo'yilgan vazifalarga karab AQSHda yerlarni tasniflashning turli tizimlari qo'llaniladi. Masalan, tuproqlar qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqliligi bo'yicha, yerlarning maxsuldorligi bo'yicha va boshqa sinflarga guruhlanishi mumkin.

AQSHda yerlarni sifat jihatdan baholash qishloq xo'jalik yerlarining maxsuldorligi bo'yicha amalga oshiriladi. Haydalma erning maxsuldorligi eng kamida 10 yil davomidagi asosiy qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorliklari bo'yicha aniqlanadi. Hosildorlik esa so'rov natijalari yoki maxsus anketa yordamida aniqlanadi. Ammo hosildorlik xo'jalik yuritish darajasiga chambarchas bog'liqdir. Shu sababli ham hosildorlik to'g'risidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda almashlab ekish tizimi, tuproqlarni ishlash, o'g'itlarni qo'llash, melioratsiya va boshqa tadbirlar to'g'risida ham ma'lumotlar to'planadi. Ushbu ma'lumotlar asosida xo'jalik yuritish sinflari belgilanadi.

Eng maxsuldor yerlarni aniqlash maqsadida AQSHda yerlarni iqtisodiy jihatdan tasniflash o'tkaziladi. Bunda qator tabiiy omillar bilan bir qatorda ba'zi iqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan, xo'jalik o'lchamlari, yerdan foydalanishning tarkibi, jadallashganlik darajasi, xo'jalik-ning joylashgan o'rni va daromadliligi, mehnat xarajatlari va boshqalar hisobga olinadi.

AQSHda ham haligacha yerlarni iqtisodiy baholashning yagona uslubiyati yaratilgan emas. Alohida shtatlarda foydalaniladigan bir qancha uslubiyatlar mavjud. Ular ichida keng tarkalgani, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish natijasida olinadigan sof daromad qiymati bo'yicha yerlarni baholash uslubiyatidir.

II-bob. O‘ZBEKISTONDA YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA UNING HOLATI

2.1. O‘zbekiston Respublikasi yer fondi

O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning islohoti iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida nodavlat sektori paydo bo‘lishi va bozor jarayonini rivojlanishi bilan bog‘lik bo‘lgan o‘ta murakkab siyosiy va iqtisodiy sharoitda kechmoqdaki, u davlat boshqaruvining aniq va samarali mexanizmini yaratilishini talab etadi, Ushbu masala yer resurslarini boshqarish sohasida, bir tomondan, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy manbai, imoratlar, inshootlar. yo‘llar, ko‘kalamzorlashtirish uchun maydonchalar bo‘lsa, boshqa tomondan ko‘chmas mulkni soliqqa tortish, investitsiya obyekti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vositasi, milliy boylikning bir qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi agrosanoati kompleksi barqaror rivojlanishini ta‘minlash hamda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini kengaytirishning asosiy shartlari qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning hosildor qatlamini saqlash, qayta tiklash va ulardan oqilona foydalanish hisoblanadi. Yerlarning tuprok unumdorligi boshqa tabiiy omillar bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqarish samaradorligi va uning tannarxiga ta‘sir etuvchi ishlab chiqarish salohiyati asosini tashkil etadi.

Xo‘jalik faoliyatida yerlarning unumdorligini saqlash va ulardan oqilona foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. U dexqonchilikni rivojlantirishning tabiiy sharti bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va yalpi hosilning ko‘payishiga yordam beradi, kishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning nafaqat ishlab chiqarish ob‘yekti sifatida, balki biosferaning tashkiliy bir bo‘lagi sifatida ham qadrini oshiradi.

Sug‘orishga yaroqli bo‘lgan yer resurslari turli hisob-kitoblarga ko‘ra 7 dan 10 mln. gektar maydonni tashkil etadi. Jumladan, o‘tloqli bo‘z tuproqlar 16%, o‘tloqlar 44%, bo‘z tuproq 30%, taqirsimon-o‘tloq 10% yerlarni tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, sug'oriladigan yer maydonlarining jadal suratda kengayishi 1970 yildan 1985 yillarga to'g'ri keladi. Ushbu davr mobaynida Respublikadagi sug'oriladigan yer maydonlari 2,8 dan 4,0 mln. gektargacha yoki 43% ga oshdi. YAngi yerlarni yoppasiga o'zlashti-rish, bir tomondan, mavjud suv resurslaridan to'liq foydalanishga olib kelgan bo'lib, Orol dengizi misolida namoyon bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, iqtisodiyotga demografik yukni yumshatish imkonini yaratdi hamda oziq-ovqat va boshka masalalarni hal qilishni engillashtirdi.

Hozirgi vaqtda, joylarda yerdan oqilona va samarali foydalanish ishlari olib borilmokda. Jumladan, kishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni ekologik va agrokimyoviy, agro-texnik holatini va sug'orish ishlarini yaxshilash maqsadida, sug'orish tizimini takomillashtirish, o'simliklarni iqlim, tuproq holatini hisobga olgan holda joylashtirish va yuqori hosildorlikni ta'minlash, yer holatini saqlash va yer hosildorligini oshirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shunga karamay, respublikada yer hosildorligining kamayishi va umumiy ekologik holatining yomonlashuvi tamoyili saqlanib kolmoqda, jumladan, ayrim hududlarda quyidagi salbiy jarayonlar kuzatilmoqda:

- sug'oriladigan yerlarnnng maydoni kamayishi, meliorativ holatining yomonlashuvi;
- sho'rlangan va eroziyaga uchragan yerlarning ko'payishi;
- sug'orma yerlarning haydaladigan qatlamlari osti zichlanishi;
- haydaladigan yerlarda gumus va ozuqa elementlari muvozanatining salbiy tomoniga oshib borishi.

Ko'rsatib o'tilgan salbiy jarayonlar, qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yerlar maydonining kamayishiga, yerning kimyoviy, suv-fizikaviy, fizik-kimyoviy holati buzilib, hosildorligining kamayishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi yer maydoni davlat mulki-umummilliy boylik hisoblanadi. Undan unumli foydalanish va asrab-avaylash davlat tomonidan muxofaza qilinadi. O'zbekiston Respublikasi yer fondi maqsadli ahamiyatiga ko'ra quyidagi asosiy toifalarga bo'linadi:

- qishloq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan yerlarga qishloq xo'jalik

ehtiyojlari va maqsadlari uchun mo'ljallangan yerlar kiradi. Ular faqat qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini yuritishni ta'minlabgina qolmay, agrolandshaftning qulay iqlim va ekologik sharoitlarini yaratishga ham xizmat qiladi.

- aholi punktlari yerlariga shahar, qishloq chegarasidagi yerlar, aholi yashash joylari, ovullar egallagan yerlar (qishloq aholi punktlari chegarasi yerlari kirmaydi) kiradi.

- sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maq-sadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan yerlarga ma'lum maqsadda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar kiradi.

- tabiatni muxofaza qilish, sog'limlashtirish, rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar. Bu yerlar alohida tabiiy hududlar egalangan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan, shuningdek, ommaviy dam olish va turizm maqsadlarida foydalaniladigan yerlar hisoblanadi. Bu toifadagi yerlarning asosiy maydoni qo'riqxonalar va milliy bog'larga to'g'ri keladi.

- o'rmon fondi yerlariga o'rmonlar bilan qoplangan, shuningdek, o'rmon bilan qoplanmagan, lekin o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun ajratilgan yerlar kiradi.

- suv fondi yerlari turkumi yerlariga suv ob'ektlari, suv xo'jaligi inshootlari egallangan yerlar va suv ob'ektlarining qirg'iqqlari bo'ylab xo'jalik yuritish uchun korxonalar, tashkilot va idoralarga belgilangan tartibda ajratib berilgan yerlar kiradi.

- Zahira yerlariga foydalanishga va ijaraga berilmagan yuridik va jismoniy shaxslarga biriktirilmagan barcha yerlar (shu jumladan, suv osti yerlari) kiradi.

1. Ekin yerlari. Ekin yerlar respublika iqtisodiyoti va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda eng muhim ahamiyatga ega.

2. Lalmi yerlar. Respublika bo'yicha lalmi yerlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish yog'ingarchilik davrida tuproq qatlamida yig'ilgan namlik hisobiga amalga oshirilishi sababli lalmi ekinlar o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 200 mm dan yuqori bo'lgan hududlarda eqiladi.

3. Ko‘p yillik daraxtzorlar. 2010 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra respublikada ko‘p yillik daraxtzollarning maydoni 346,9 ming ga ni tashkil etadi.

4. Bo‘z yerlar. 2010 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra respublikamizda bo‘z yerlar maydoni 82,8 ming ga ni tashkil etadi.

5. Pichanzorlar. 2010 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra respublikada pichanzorlar maydoni 112,3 ming ga ni tashkil etadi.

6. Yaylovlar. Respublikaning ko‘pchilik qismini yaylovlar tashkil etib, ular chorvachilikning asosiy ozuqa manbai hisoblanadi. 2010 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra respublikada 22134,1 ming ga yaylov maydoni bo‘lib, shundan suv bilan ta‘minlangani 19434,4 ming ga ni tashkil etadi. Iqlim sharoitlariga ko‘ra yaylovlar cho‘l, adir va tog‘ mintaqalariga bo‘linadi. Cho‘l mintaqasi dengiz sathidan 500 metr balandlikda, respublikaning shimoliy - g‘arbiy qismida joylashgan. Bu yerlar yil mobaynida qorako‘lchilikda yaylov sifatida foydalaniladi. SHarqda cho‘l mintaqasi asta-sekin adir mintaqasiga qo‘shi-lib boradi. Bu yerlar dengiz sathidan 1000-1200 m balandlikda joylashgan. Adir mintaqasi asosan kuzgi va bahorgi yaylov sifatida foydalaniladi. qo‘y va echkilar bu yerlarda yil mobaynida boqiladi.

2.2. O‘zbekistonda yer resurslaridan oqilona foydalanish

O‘zbekiston tabiiy-iqlim sharoitlarining – iqlim, relef, tuproq paydo qiluvchi jinslar, gidrologik holatlari murakkabligi bu yerda tuproqlarning xilma-xil bo‘lishini va qishloq xo‘jaligida foydalangan yerlarning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Respublika qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan yer maydoni 28 mln. gektardan oshiqroq. Birinchi qarashda yer maydoni ko‘pga o‘xshab ko‘rinsada, aslida qishloq xo‘jaligida intensiv foydalaniladigan yerlar, asosan, sug‘oriladigan maydonlar bo‘lib-4,28 mln. gektarga teng. Bu yerlar haqiqattan ham respublikamizning «oltin fondi»ni tashkil etadi va ularda yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 95 foizidan oshiqrog‘i etishtiriladi.

O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston qadim zamonlardan beri dunyoda

sug'orma dehqonchilikning markazlaridan biri bo'lgan. Uzoq yillar davomida bu tuproqlar o'z unumdorligini yo'qotmagan, aksincha dehqon faoliyati natijasida hosildorlik oshib borgan. Lekin biz yashayotgan asrning o'rtalariga kelib, ayniqsa keyingi 30-40 yil davomida, yerlarni bir tomonlama ekspluatatsiya qilish – qanday bo'lmasin faqat asosiy ekindan yuqori hosil olish uchun urinish bir qator noxush hollarga olib keldi. Eng avvalo, ularning meliorativ holati yomonlashdi. Keyingi yigirma yil davomida sho'rlangan yerlar miqdori 850 ming gektarga ko'paydi va umumiy maydoni 2 mln. gektardan oshdi, bu sug'oriladigan yerlarning yarmi demakdir. Tuzlar to'planishi va yerlarning sho'rlanishi cho'l mintaqasi va och tusli bo'z tuproqlar poyasida, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Sirdaryo viloyatlarida, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy, Samarqand, Farg'ona viloyatlarining bir qismida kuchayib ketgan. Bundan tashqari gipsli tuproqlarning o'zlashtirilishi yerlarning cho'kishiga va tezda qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketishiga sabab bo'lmokda.

Tuproqlarning ikkilamchi sho'rlanishini keltirib chiqaradigan sabab - mineralizatsiyalashgan grunt suvlari-ning yer yuzasiga yaqinligidir. Sug'orish suvlarining katta me'yorda ishlatilishi grunt suvlari sathining ko'tarili-shiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda grunt suvlari kam mineralizatsiyalashgan (1-3 g/l) maydon 1,5 mln.gektarni, o'rtacha mineralizatsiyalashgan (3-5 g/l) - 0,7 mln.gektarni va kuchli mineralizatsiyalashgan (5 gm) - 0,5 mln. gektarni tashkil etadi.

Tuproqlarning unumdorligiga shamol va suv eroziyalari katta ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda 2 mln. gektardan oshiqroq yer deflyasiyaga, jumladan 0,7 mln. gektar yer kuchli deflyasiyaga uchragan, 0,5 mln. gektar yerda irrigatsiya eroziyasi yuz berish xavfi bor. Bunday yerlar tog' oldida joylashgan viloyatlar, ayniksa, Farg'ona vodiysi adirlarida ko'plab uchraydi. Eroziya natijasida gektaridan 0,5-0,8 tonna gumus, 100-120 kg azot, 75-100 kg fosfor yuvib olib ketilishi mumkin.

Respublika tuproqlarining asosiy qismi har xil pestitsidlar, zaharli kimyoviy moddalarning qoldiqlari bilan har xil darajada ifloslangan. Ular etishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining sifatini yomonlashtirishi bilan bir qatorda foydali

tuproq mikroorganizmlarining faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston tuproqlarida makrostruktura kam, lekin ular kuchli mikrostrukturaga ega. Lekin, rezina g'ildirakli traktorlarda bir necha bor ishlov berish natijasida tuproqlarning mikrostrukturasi ham parchalanib ketadi, zichligi, ayniksa, haydov osti qatlamining keskin zichlashuvi kuzatilmokda. Bu hol o'z navbatida tuproq unumdorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri, suv va havo rejimlarining buzilishiga olib keladi.

Sug'oriladigan tuproqlarda gumus moddasining kamayib ketishi kuzatilmokda. Ozuqa elementlarining asosiy qismi o'simlik biomassasi bilan tuproqdan olib chiqilib ketmokda va tuproqqa qaytib tushadigan yoki sun'iy o'g'it sifatida beriladigan miqdori sezilarli darajada kam, demak dehqonchilikning asosiy qonuniyatlaridan biri -erga «qaytarish» qonuni buzilgan. Natijada sug'ori-ladigan yerlar kambag'allashib ketgan, ularning fizikaviy - kimyoviy xususiyatlari yomonlashgan. SHuni ta'kidash lozimki, bunga almashlab ekishga e'tiborsizlik, paxta yakka hokimligi ham katta sababchi bo'ladi(1-jadval).

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yerlarimizning meliorativ - ekologik holati yomon, demak unumdorlik darajasi yuqori emas. Lekin hamma joyda ham shunday deyish xato. Ilmu-fanning asosli tavsiyalariga, minglab yillik dehqonchilik tajribalariga tayanib ishlayotgan dehqon, fermer, shirkat xo'jaliklarida tuproq unumdorligi kamaymasdan, balki oshganligi kuzatilmokda. Demak, tuproqlarning ishlab chiqarish potentsiali yuqori, masala uni qanday qilib samarali unumdorlikka aylantirishda. Bunga qanday erishish mumkin?

**O‘zbekiston Respublikasi sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yerlarining
sho‘rlanganligi bo‘yicha ma‘lumot**

Viloyatlar nomi	Sho‘ri yuvilgan	Sho‘rlanish darajasi				
		Kuchsiz	O‘rtacha	Kuchli	juda kuchli	Jami
Qoraqalpog‘iston Res.	0	110382	151702	142901		404985
Andijon	0	52241	20647	4910		77798
Buxoro	0	98565	45150	31279		174994
Jizzax	145	101018	76053	38885		216102
Qashqadaryo	2994	213931	63347	31504		311776
Namangan	1458	49726	18051	13053		82288
Navoiy	1114	48735	19598	6661		76108
Samarqand	1528	102767	19897	4608		128800
Surxondaryo	8669	99742	47646	22542		178599
Sirdaryo	9833	115740	70094	48848		244515
Toshkent		67580	13107	5335		86022
Farg‘ona	590	108044	67401	42988		219023
Xorazm	31	106843	50611	23158	199	180842
Respublika bo‘yicha	26362	1275314	663304	416672	199	2381852

Tuproqning unumdorligini ko‘p jihatdan belgilovchi organik modda-gumusning miqdorini oshirish lozim. Shuni ta’kidlash kerakki, tuproq unumdorligida gumusning umumiy zaxirasi emas, balki yangi faol organik qismi katta ahamiyatga ega. qadimdan sug‘oriladigan tuproqda gumus zahراسi ko‘p bo‘lsada, u faol emas. Masalan, Tuproqshunoslik va agrokimyo instituti olimlari 11 yil davomida har xil tuproq tiplarida vilt kasalligi tarqalishi bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalari bu kasallikning ko‘pincha qadimdan sug‘oriladigan yerlar - bo‘z va o‘tloqi - voha tuproqlarga to‘g‘ri kelishini aniqladilar. Yangi sug‘orilgan yerlarda vilt kasalligi sezilarli darajada kam, yangi o‘zlashtirilgan yerlarda esa bu kasallik umuman kuzatilmadi. Bu hol yangi o‘zlashtirilgan yerlarda qo‘riq davrida paydo bo‘lgan faol organik moddalar mavjudligi deb qaralishi mumkin. Demak, tuproq unumdorligini oshirish uchun, tuproqqa doimiy tushib turadigan yangi

organik moddalar zarur.

Amaliyotda tuproqlar unumdorligini har tomonlama oshirib borish masalasini echmoqlik faqat ularning tabiiy resurslarini ishga solmoqlikka asoslangan bo'lmagan, balki ularning sarf bo'lib ketgan qismini qaytarish va to'ldirish, shu bilan birga agroekosistema-larning qo'shimcha energiya rezervlariga va fotosintezning yuqori mahsuldorligi shartlarini qondirmoqlikka (birinchi navbatda karbonat angidrid gaziga bo'lgan talabni qondirmoqlikka) asoslangan bo'lishi kerak.

Agroekosistemalarda energetik balansni, moddalar balansini musbat ko'rsatkichga ko'tarish uchun yoki mo'tadillashtirish uchun tuproqda, bizningcha organik modda yig'ilishini ko'paytirish zarur. Buning uchun: tuproq-o'simlik-biomahsulot tizimi formulasi tuproq-o'simlik - chorva mollari - biomahsulot tizimi shakliga o'tkazilishi kerak.

Hozirgi vaqtda bunday tizim ayrim kichik dehqon va fermer xo'jaliklarida mavjud, lekin bu tizimni mamlakatimizning hamma hududida etarli darajada qo'llash lozim. Bu tizim amaliyotda keng qo'llanilganda:

- a) agroekotizim tarkibida ozuqa don ekinlari hissasi ortadi;*
- b) chorvachilik rivojlantirilib, undan olinadigan sut, go'sht va boshqa mahsulotlar ko'payadi, shu bilan birga bu sohada ham mustaqillikka erishiladi;*
- v) tuproq unumdorligini oshirishning real manbai - organik o'g'it etarli bo'ladi;*
- g) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi chiqindisiz, atrof-muhitni ifloslantirmaydigan ekologik toza texnologiyaga ega bo'ladi.*

Hozirgi sharoitda dehqonchilikni mineral o'g'itlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi - ular yuqori hosil olishning muhim omili. Eng yaxshi tuproqlardan biri bo'lgan bo'z-voha tuproqlarining tabiiy unumdorligi g'o'zadan gektariga 12-15 sentner hosil olishni ta'minlaydi holos. Kimyolashtirish yangi rivojlangan paytda, ma'dan o'g'itlarning foydaliligi yaqqol ko'zga tashlandi. 1970 yillardan boshlab ularning me'yori oshgani bilan samarasi kamaya boshladi (19-jadval).

Salbiy hollar ko‘zga tashlandi: tuproqlarda makro va mikroelementlar nisbati buzildi, azotning yuvilishi, grunt suvlariga o‘tishi va atrof-muhitning ifloslanishi, vilt kabi kasalliklarning kuchayishi, foydali mikroorganizmlarning kamayishi va hokazo. Kam unumdorlikka ega bo‘lgan tuproqlarda o‘g‘itlarning o‘zlashtirilishi ham juda past. SHuning uchun tuproq unumdorligini oshirishda mineral va organik o‘g‘itlarni birgalikda ishlatish katta ahamiyat kasb etadi.

2.3. Yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning nazariy asoslari

Boshqaruv munosabatlarining turlari har qanday yer munosabatlarini boshqarish singari muayyan tizim doirasida shakllanadi. U hodisalar, predmetlar, unsurlarning bir-biri bilan qonuniy bog‘langan obyektiv birligini ifodalaydi. Ta’kidlagandek, boshqarish tizimi bu bir-biri bilan bog‘langan birlikni va o‘zaro munosabatlarda bo‘luvchi unsurlar yig‘indisidir. Harakat o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lmay, balki boshqa tizim va unsurlar ta’sirida yuzaga keladi. U mavjud tizimga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi muhitni tashkil etadi.

Yer munosabatlarini boshqarish ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi. yer munosabatlarini boshqarish mexanizmi stixiyali va ongli harakterda bo‘lishi mumkin. Stixiyali mexanizm avtomatik tarzda shakllanadi va bu jarayonda davlatning aralashuvi talab qilinmaydi.

Boshqarishning ongli mexanizmida esa davlat ijti-moiy institutlari boshqarish subyektlarining rivojlanish jarayonini va ilmiy asoslangan qonuniyatlarini hisobga olish orqali yer munosabatlarini boshqaradi.

Yer resurslarini boshqarish - bu yer resurslariga jamiyat va davlatning yer resurslarini foydalanishda ularning samaradorligini orttirish uchun muntazam, ongli va aniq maqsadga qaratilgan ta’sir ko‘rsatishidir.

Yer munosabatlarining obykti yer resurslaridir. Yer resurslarini boshqarish esa ulardan foydalanishni rejalashtirish, tashkillashtirish, tartibga solish va nazorat qilishdan iborat bo‘lishi kerak.

Yer resurslarini boshqarishda quyidagi yo‘nalishlar mavjud:

• siyosiy yer resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha davlatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ekologik vazifalarini bajarilishini ta'minlash. Ma'muriy boshqarish esa yer resurslarini boshqarish omilkorligini aniqlash, o'zaro muvofiqlashtirilgan vazifalarni va ularni bajarishni tashkil etish, davlat boshqaruvi va mahalliy organlar gizimini shakllantirish;

- huquqiy - qonuniy xujjatlarda belgilangan huquqiy me'yorlar asosida yer-ni saqlash va oqilona foydalanish;
- ilmiylik - fan-texnika taraqqiyoti erishgan yutuqlarni hisobga olib yer resurslarini boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;
- Iqtisodiy - yer resurslaridan samarali foydalanish shartlarini belgilash;
- Tashkiliy-texnologik - iqtisodiy, ijtimoiy rag'batlar va yer resurslarini asrash hamda ulardan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.

Yer resurslarini boshqarish ob'yektiv va sub'yektiv omillarni muayyan birga qo'shib olib borish demakdir. Bir vaqtning o'zida tabiatning jinsi sifatida yer o'zining qonuni bo'yicha rivojlanadi va boshqarish ushbu uslublari va shakllariga muayyan ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun boshqarish vazifalarini bajarish vaqtida hududning rivojlanishi, iqtisodiy sharoitlari kompleksida urning asosiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bundan tashkari, yer resurslarini boshqarish majmuasi harakterga ega, chunki yer munosabatlari sub'yektlarniig ko'pgina manfaatlariga borib taqaladi. Bu boshqarish organlaridan yer resurslarini asrash va foydalanish jarayonining shakllanishiga tashkiliy-texnologik qarorlar, ekologo-iqtisodiy oqibatlar imkoniyati bilan tizimli yondashuvini talab qiladi.

Shunday qilib, yer resurslarini boshqarish asosida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy informatsiyalar va tabiat qonunlariga tegishli bo'lgan umumiy iqtisodiy qonunlar yotadi. Ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik aspektlar realizatsiyasi yer resurslari mazmuniining tashqi tomoni, ya'ni boshqarish bo'yicha davlatning tashkiliy-xo'jalik va huquqiy, reja-iqtisodiy sifatidagi tadbirlarini ifodalaydi.

Yer resurslarini boshqarish tizimida ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqa sohalarda bo'lgani singari ishlab chiqarish kuchlarini harakteri yerdan foydalanish va egalik qilish shakllari bilan bog'langan ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasida

doimo ziddiyat tugʻilib turadi. Agar ular oʻz vaqtida echilmasa, jiddiy holat yuzaga keladi. Shuning uchun yer resurslarini boshqarishning uslublari va shakllari ijtimoiy rivojlanishning har bir bosqichida ijtimoiy ishlab chiqarishning ijtimoiy shartlari, siyosiy, iqtisodiy va boshqa shakllari bilan muvofiq kelishi shart. Yer resurslarini boshqarish vaqtida yerlarga egalik qilish va foydalanish uchun egalik qilishda yuridik shaxslar va fukarolar, shuningdek, hokimiyat organlari davlat manfaatlarini muxofaza qilishga rioya etishlari kerak. Yer resurslarini boshqarishni uyushtirish har doim davlatga tegishli boʻlishi lozim.

Yer resurslarining boshqarish tizimining asosini boshqarishning funksiyasi va vazifalari, maqsadi, predmeti, subʼyekti va obʼyekti tashkil etadi. Boshqarishning subʼyekti va obʼyekti koʻp yillik natijalarning zamirida paydo boʻladi.

Respublikamiz Mustaqillikka erishganidan buyon barcha jabhalarda keng koʻlamda islohotlar oʻtkazilmoqda. Xususan, yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. yer xalq xoʻjaligining barcha tarmoqlari tizimida va qishloq xoʻjalik mahsulotlarini etishtirishda asosiy vosita hisoblanadi. SHu bois, u aholi hayoti, faoliyati va farovonligida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda qishloq xoʻjalik ahamiyatiga ega boʻlgan yerlarni muxofaza qilishga alohida eʼtibor berilmoqda. Chunki mamlakatimizda umummilliy mulki boʻlgan erni muxofazalash va undan foydalanish konstitutsion ahamiyatga ega boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida «Yer, yer osti boyliklari, suv, oʻsimliklar va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, chunki ular davlat muxofazasidir», - deb belgilab qoʻyilgan.

Konstitutsiyaviy meʼyorlar yer munosabatlariiii tartibga solib turuvchi - qonun xujjatlarining barchasiga tatbik etiluvchi va oliy yuridik kuchga ega boʻlgan huquqiy meʼyorlardir. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, mamlakatimiz fuqarolari qonunlarda belgilangan tarzda mulk huquqiga egadirlar va uzlarining mulklaridan oʻz xohishlaricha foydalanishlari mumkin, ular tabiiy resurs-

larga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga majburdirlar. Yuqorida qayd etganimizdek, yer boshqa tabiiy boyliklar singari umummilliy boylikdir, ularni tasarruf qilish esa vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbuslari bilan qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi-ning "Yer kodeksi", "Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida"gi, "Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida"gi, "Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida"gi, "Davlat yer kadastri to‘g‘risida"gi qonunlarning qabul qilinishi mamlakatimizda yer resurslaridan yanada samarali va oqilona foydalanishning huquqiy poydevorini yaratib berdi.

Zotan, ularda yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari etib hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko‘zlab, yerdan ilmiy asoslangan holda kadriga etib foydalanish va uni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, tabiiy muxitni avaylash va yaxshilash, xo‘jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yuridik va jismoniy shaxslarining yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini himoya qilishni ta‘minlash maqsadida yer munosabatlariiii tartibga solish, shuningdek, bu sohadagi qonunchilikni mustahkamlash kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan. Bu ishlarni amalga oshirish va hayotga tatbiq etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining bir kator qarorlari qabul qilindi.

Yer munosabatlariiii tartibga solishda yagona davlat siyosatini yuritishni ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 15 oktyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasini tashkil qilish to‘g‘risida" gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 19 oktyabrdagi 483-sonli Qarori bilan Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi tashkil etildi. Ushbu kumitaga yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer munosabatlariiii tartibga solish, yer kadastriiii yuritish, yer tuzishni va yer monitoringini tashkil qilish, tuproq unumdorligini saklash, oshirish va qayta tiklash borasida yagona davlat siyosatini yurit-

ish, yerlardan oqilona foydalanish va muxofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish kabi vazifalar yuklatildi.

Shunday kilib, pirovard maqsadda yerdan foydalanishning tejamlı tizimini tashkil qilish va amalga oshirish, ya'ni agrosanoat majmuasida va, umuman, iqtisodiyot tarmoqlarida ularni aniq maqsadga yo'naltirilganligini - erni tejash va foydalanishda yuqori samaradorlikka erishish mezonı bo'yicha davlat yer zaxirasini, yer toifalari bo'yicha tabaqalashtirilgan mezonni ta'minlashdan iboratdir.

Ravshanki, bu yerda ayrim tadbirlarnı chetlab o'tib bo'lmaydi. Binobarin, yerdan foydalanish masalasini echishga, yangi sharoitda, majmualı yondashuv talab etiladi. Biroq nafaqat oddiy tadbirlar majmuasi, balki yerdan foydalanish iqtisodiyotini tashkil etish, rejalashtirishning barcha tizimlarini maqsadga yo'naltirilgan holda rivojlantirish, pirovard natijada, yer resurslarini boshqarishning yaxlit va samarali tizimini yaratish lozim.

Shuning uchun soliq solish va byudjet daromadlarnı to'plashni ko'paytirishga imkoniyat beradigan yer resurslarini boshqarishning mintaqa va mahalliy o'z-o'zini boshqarishda investitsiyalar jalb qilishning, yer munosabatlarining sub'yektlari uchun kafolatlangan huquq bilan ta'minlashning samarali tizimini yaratishda yangi tamoyillar va uslublar vujudga keladi. Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish sohasida I. V. Degtyarev, S. A. Tkachuk, V. N. Xlistun, T. P. Magazinshikov, Ya. Maul, M. A. Gendelman, B. P. Balezn, S. A. Avezbaev, A.S. Chertovitskiy, G.A. Talipov, A. Abdug'aniev, I.M. Zak va boshqa olimlar tomonidan ma'lum ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. V.V. Kim, K.A. Choriyev, F.K. Kayumov, E.S. Karnauxova, A.T. Abdurazaqov, A.R. Bobojanov va boshqa olimlarning maxsus tadqiqot va ilmiy izlanishlari ham diqqatga sazovordir.

Samarali texnologiyalarnı amaliyotga joriy qilish asosida yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish muammolari R.X. Xusanov, K.A. Xasanjoiov, O.R. Ramazonov, M. Xoshimjonov, A.S. Samitali singari iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida yoritilgan.

Nomlari yuqorida zikr etilgan olimlarning ilmiy izlanishlari bo'lishiga qaramasdan, bozor munosabatlarining izchil shakllanishi sharoiti va jarayonida yer

resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishni takomillashtirish muammolari hali etarli darajada ilmiy – uslubiy jihatdan o‘rganilmagan. Bu hol ushbu ilmiy tadqiqot izlanish mavzusining tanlashiga asos bo‘ldi.

Mamlakat miqyosida, tabiiy - iqtisodiy mintakalar bo‘yicha yer tankisligi sharoitida xalq xo‘jaligi tarmoqlariaro va tarmoq ichidagi sohalar bo‘yicha yer taqsimoti masalalari etarlicha o‘rganilmaganligi va bu muammolarni fakat ayrim olimlarning ilmiy makolalarida (A.P. Verveyko, P.S. Shevchenko, P.F. Loyko, T.P. Magazinshikov, F.I. Palchikov va boshqalar) yoritilganini ko‘ramiz.

Mavzuning keng qamrovligi, yer monitoringi, milliy hisobot tizimida yer hisobi, boshqaruvda psixologik omillar, maxsus yer fondini tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha umuman ilmiy - tadqiqot ishlari natijalarini ilmiy nashrlarda chop etilmaganligi fikrimizga asos bo‘ladi.

Yer resurslarini boshqarishning umumiuslubiy masalalarini ishlab chiqish yer isloxotini o‘tkazish konsepsiyasi asosida O‘zbekistonda yer munosabatlarini tartibga solishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash hisoblanadi. Mazkur ilmiy - tadqiqotlar maqsadiga yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishning ilmiy metodologiyasini o‘rganishda muammoga yaxlit va murakkab jarayon sifatida tizimli yondashuv va shunga asosan uning ilmiy - uslubiy nazariyasini hamda yer taqsimotini iqtisodiy asoslash kiradi.

Ilmiy tadqiqot maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi ilmiy amaliy vazifalarni hal etish ko‘zda to‘tadi.

- yer resurslarini boshqarish bo‘yicha chet el tajribalarini tadqiqot qilish va umumlashtirishni;
- «yerdan foydalanish» tushunchasining iqtisodiy mohiyatini ochib berishni. Uning shakllanishi va jarayon ko‘lamining ob‘yektiv shart - sharoitlarini bozor munosabatlariga o‘tish jarayoniga mos holda tadqiq qilishni;
- ma‘muriy tuman, viloyat va davlat miqyosida yagona davlat kadastrlari va yer kadastrini yuritish mexanizmlarini o‘rganib chiqishning va samarali, istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashni;

- yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishning davlat tadbirlar tizimi sifatida tushunchasi va iqtisodiy mohiyatini yoritishni;
- yer kadastrini murakkab va yaxlit tizim sifatida ilmiy – uslubiy asoslarini ishlab chiqishni;
- yer resurslaridan samarali foydalanish tamoyillari tizimini asoslashni;
- maxsus yer fondini tashkil etishning iqtisodiy mexanizmini yaratishni tatqiq qilishni;
- yer resurslarini tarmoqlararo taqsimotining modellarini yaratishi;
- yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishda ko‘chmas mulklar omiliniig ta’sir mexanizmini takomillashtirishni.

Tadqiqotlar yerdan foydalanish jarayonining tahlili va yer resurslarini boshqarishni bashoratlashni dialektik yondashuviga asoslangan. Tadqiqotning metodologik asosini mamlakatimizdagi zamondosh va chet el iqtisodchi olimlarining yer resurslarini boshqarish, tabiiy resurslar salohiyati, agrar sohaning rivojlanishi va hududiy joylashuvi, yer kadastr va monitoringi, yerdan foydalanish iqtisodiy muammolari bo‘yicha ishlari tashkil etadi.

Tadqiqotlarda Oliy Majlis va O‘zbekiston Respublikasi hukumatining huquqiy va me’yoriy hujjatlaridan foydalanilgan. yer fondining miqdor va sifat bahosini yer resurslarini boshqarish bilan uzviy bog‘liq holda echish tadqiqotning muhim metodologik tamoyili hisoblanadi.

Tadqiqot ishlarida iqtisodiy-statistik tahlil, ekspert baholash, me’yoriy balanslash va boshqa uslublar qo‘llanilgan. Tadqiqot jarayonida Iqtisodiyot vazirligi, «O‘zyergeodezkadastr» Davlat qo‘mitasi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining statistik va bashoratlash ko‘rsatkichlaridan, muallif tomonidan yig‘ilgan va umumlashtirilgan ilmiy tadqiqot va loyiha institutlarining ilmiy hisobotlari hamda dala-qidiruv va monografik tadqiqotlar materiallaridan foydalanilgan.

Erning ishlab chiqarish vositasi ekanligi ijtimoiy-iqtisodiy bog‘lanishlar ob’yekti va tabiat kompleksini asosiy unsuri izlanish metodologiyasini tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida muallif yer kadastr, tuzish, yer huquqi boshqaruv psix-

ologiyasi, umum iqtisodiy va boshqa ilmiy yo‘nalishlarga suyanan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qarorlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarida va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida respublika xalq xo‘jaligi tarmoqlari rivojlanishi tabiiy resurslardan samarali foydalanishni boshqarish, ularni muhofaza qilish bo‘yicha belgilangan tadbirlar tizimi asos qilib olingan. Bundan tashkari, yirik iqtisodchi olimlarnishg mavzuga oid asarlari umumiqtisodiy, agrar va yer islohotlarining asosiy yo‘nalishlari dissertatsiya ishi oldiga quyilgan vazifalarni hal etishda asos qilib olindi. Izlanishlar olib borishda iqtisodiy joriy etishning abstrakt - mantiqiy, iqtisodiy-statistik, konstruktiv - hisob qilish, monografik, me‘yoriy, indeks va boshqa usullariga tayanildi.

Respublika yagona yer fondi, yer toifalari va yerdan foydalanuvchi sub‘yektlar tadqiqot ob‘yekti hisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida yer resurslarini boshqarish bo‘yicha yerdan foydalanishdagi ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlar tadqiqot predmetidir. Yerni asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida undan samarali foydalanishni boshqarish va yer munosabatlariiii tartibga solish asosidagi yer taqsimoti muammolari ushbu tadqiqot ishining predmetidir.

Tadqiqot jarayonlarida asosiy informatsiya manbalari sifatida hukumatning yer munosabatlarini tartibga solish, yerdan foydalanish, yer kadastri, yer tuzish bo‘yicha qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi makroiqtisodiyot statistika qo‘mitasi to‘plamlari, davlat yer hisobi, yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarni ro‘yxatga olish, yerlarni sifat bahosi, tumanlar va qishloq xo‘jalik korxonalarining yillik hisobotlari, ilmiy tadqiqot va loyida institutlariing tavsiyanomalari, ayrim iqtisodchi olimlarning ilmiy - uslubiy asarlari va shu kabilardan keng foydalaniladi. Asosiy ilmiy - amaliy echimlarni chukur tadqiq va tadbiiq etish esa yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar misollarida olib boriladi.

O‘tkazilgan tadqiqot ishining ilmiy yangiligi belgilangan maqsad va vazifalarni bozor iqtisodiyoti usul, tamoyil va talablari asosida hal etilganligidadir. SHu nuktai nazardan izlanish jarayonida:

- yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish tamoyillari nazariy jihatdan rivojlantirilgan;

- bozor munosabatlari sharoitida yer taqsimoti nazariyasining asosiy yoʻnalishlari, mohiyati va ahamiyati oʻrganilgan hamda shunga asoslanib ilmiy amaliy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

- davlat yer monitoringining ilmiy uslubiy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotda qoʻllash usullari asoslab berilgan;

- tuman, viloyat, mintaka va davlat miqyosida, bozor iqtisodiyoti sharoitida maxsus yer fondini tashkil etish mexanizmi ilmiy jihatdan asoslanib, aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan;

- xalq xoʻjalik tarmoqlari va tarmoq ichidagi sohalar boʻyicha yer taqsimotining nazariy va amaliy masalalari boʻyicha echimlar berilgan;

- yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishda erga bevosita biriktirilgan koʻchmas mulklar xususiyatlarining bozor munosabatlari sharoitidagi oʻrni aniqlangan;

- yer kadastrining tamoyillari va tarkibiy qismlari hozirgi davr talab darajasida ilmiy - uslubiy jihatdan asoslab berilgan;

- yer munosabatlarini bozor iqtisodiyoti sharoitida tartibga solish tizimida yer tanqisligi qonuniyatlarini ilmiy jihatdan chuqur oʻrganish natijasida resurslar mutanosibligini iqtisodiy asosi yaratilgan;

- yer egaligi va yerdan foydalanuvchilar psixologik xususiyatlarini yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishga taʼsiri qonuniyatlari aniqlangan;

- yer resurslaridan foydalanishdagi nazoratning tezkor usullarini qoʻllash uslublarini chuqur tahlil qilish natijasida tashkiliy – iqtisodiy tadbirlar ishlab chiqilgan.

Olingan natijalar yer kadastri va yer tuzish nazariyasi amaliyotini aniq maqsadli yoʻnalishini belgilashda va rivojlantirishda, yer kadastri, yer tuzish, xaritashunoslik ixtisosliklari boʻyicha mutaxassislar tayyorlash hamda malaka oshirish tizimini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqot ishlarining asosiy g'oyalari, nazariy – uslubiy yondashuvlar va amaliyotga tadbir natijalari ilmiy maqolalarda, ilmiy - uslubiy tavsiyalarda, ma'ruzalar matnida va tezislar shaklida yoritilgan. Dissertatsiyaning mazmuni asosan umumiy iqtisodiy, yer kadastri va yer tuzish sohalari bo'yicha o'tkazilgan ilmiy - amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Bajarilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida davlat yer kadastri, yer tuzish, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, avtomobil yo'llar konserni, temir yo'llar korporatsiyasi, «O'zavtoyul» loyiha instituti, «O'zdavyerloyiha» institutiga quyidagi ilmiy - uslubiy tavsiyalar amaliyotda qo'llash uchun takdim etilgan:

- yer monitoringini joriy etish;
- tuman maxsus yer fondini tashkil qilish;
- yer islohotining asosiy yo'nalishlari (konsepsiyasi);
- tarmoqlararo yer taqsimoti uslubiyati va agrosanoat tarmoqlari ichida yer taqsimoti;
- yer balansi tuzishda ma'lumotlar tizimini yaratish;
- yer tanqisligini "yumshatish" usullari va yerdan foydalanuvchi sub'yekt (rahbar) ning psixologik xususiyatlarini yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishdagi ahamiyati.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat miqyosida o'tkazilayotgan umumiy iqtisodiy, yer va agrar islohotlarni amalga oshirishning murakkab jarayonlari davrida yer resurslaridan samaradsh foydalanishni boshqarishni takomillashtirish ehtiyojini kuchaytiradi. Aynai shu ma'noda yer kadastri va yer tuzish bo'yicha yangi nazariy va amaliy jihatdan yondashuvlari yer taqsimotining amaliy masalalarining yechimlarida o'z isbotini topganligi qo'yilgan muammoning amaliy ahamiyatini bildiradi.

Yer taqsimotining tizimli yondashuvini umumdavlat miqyosidan yer kadastrining birlamchi manbai bo'lgan yer uchastkasigacha bo'lgan pog'onalarda hal etish, milliy hisobot tarkibida yer hisobiniig amaldagi qo'llash uslublari ham bajarilgan tadqiqotlarni amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan yer monitoringidagi tizimini joriy etish, yerdan foydalanish boshqaruv psixologiyasini amaliy yondashuvlar, yer tanqisligini «yumshatish» bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar, tarmoq-lararo va tarmoq ichidagi yer taqsimoti uslublari, yer kadastr ma'lumotlari bank tizimini yaratish ilmiy-uslubiy va amaliy ahamiyatga ega. Tavsiya etilgan ilmiy ishlanmalar barcha yerdan foydalanuvchilar ishlab chiqarish faoliyatida yerdan samarali foydalanishni boshqarishga amalda bo'lishi yondashuvlarning hayotiyligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni tubdan o'zgartirish jarayonida yer munosabatlari va yer resurslarini boshqarishning samarali ko'rinishlari namoyon bo'lmoqda. yer o'zining asosiy xususiyatlaridan tashqari, ushbu resurs ishlab chiqarish vositasi, hududiy biznes, tabiiy boylik, huquqiy munosabatlar va ko'chmas mulk ob'yekti bo'lib qoldi.

Viloyat va tuman (shahar) ma'muriy - hududiy miqyosda yer resurslarini boshqarishning muhim omillaridan biri davlat yer kadastr hisoblanadi. U yer munosabatlarini iqtisodiy tartibga solishning va hududiy davlat boshqaruvining axborot asosi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga yer kadastrining asosiy muvofiqlangan qismi bozor sharoitiga moslashgan bo'lishi kerak. Ayniqsa, bu yer munosabatlari sub'yektlariga soliq solish qoidalari va qonun o'zgarishi tamoyillarini tadbiiq etishda hamda turli toifadagi yerlarni davlat kadastr yordamida baholashning iqtisodiy asoslangan usulini ishlab chiqishda muhimdir.

Bozor munosabatlari qaror topishi sharoitida yerlarni davlat boshqaruvining majmualii uslubini eng qulay qo'llash va byudjet daromadlarini ko'paytirishni ta'minlovchi, yerdan foydalanishning eng samarali va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq shakli sifatida erna ijaraga berishning rivojlanishi, ayniksa muhim ahamiyatga ega bo'ladi. SHu bilan birga yer munosabat-larining davlat boshqaruvidagi yagona tartibini o'rnatish, ijara xaqi miqdorini aniqlash usullarini ishlab chiqish, yer bozorining holatini aniq aks ettiradigan mintaqa ikgisodiyotining holati va undagi jarayonlarni boshqarish tizimida, yer ijara

siyosatida tadbirlar majmuasini shakllantirishning birlamchiligini hisobga olish hal kiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Yer munosabatlarini tartibga solishning uslubiy nazariyasini ishlab chiqish, yerning oldi-sotdi shakllari va uslubini faollashtirish, yer uchastkalarini xususiylash-tirish jarayonlarini, investitsion, baholash, sug'urta faoliyati, ipoteka, kreditlashtirish, yerga oid qimmatbaho qog'ozlar bilan muomala o'tkazishni rag'batlantirish zarur.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish tizimini takomillashtirish davlat siyosatining eng asosiy masalalaridan biridir. O'zbekistonda yer resurslarini boshqarish yer islohotining asosiy muammosi hisoblanadi. Chunki bu muammo hozirgacha o'z yechimini topganicha yo'q. O'z navbatida, ushbu dolzarb masala O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy rivojlanish masalalarini yechimi bilan uzviy bog'langan. Aynan jamiyat taraqqiyot darajasini yer resurslaridan eng samarali foydalanish belgilab beradi.

Yer munosabatlarini boshqarish-barcha ijtimoiy munosabatlarni kamrab oladi. Munosabatlar ijtimoiylikdan tortib iqtisodiy, huquqiy, ekologik va boshqarishning boshqa turlarini ham o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda O'zbekiston jamoatchiligi va iqtisodchi olimlar o'rtasida yer munosabatlarini rivojlanish mexanizmi to'g'risidagi bahslar ortdi:

Fikrimizcha, yer munosabatlariiii boshqarish - bu davlatning va jamiyatning yer resurslarini boshqarishga muntazam va muayyan maqsadga qaratilgan ta'sir ko'rsatishidir. Bu ta'sir ko'rsatish mamlakatning yer resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida ob'yektiv qonunlarni bilishga va ularni hayotga tadbiq etishga undaydi. Yer resurslarini boshqarish tarkibiga quyidagilarni kiritish kerak: yerdan foydalanish ustidan nazorat qilish, tashkillashtirish, tartibga solish, rejalashtirish.

Yer resurslarini boshqarish tizimining asosini ob'yekt, sub'yekt, predmet, maqsad, vazifa va boshqarish funksiyasi tashkil etadi. Boshqarishning ob'yekti va predmetini tarixiy ijtimoiy jaryonlar natijasi deb bilish zarur. Boshqarishning predmet va ob'yekt turlari bir-biri bilan uzviy bog'langan. Masalan, ko'p kavatli

binolarning yer uchastkalarini boshqarish, bir qavatli binolar joylashgan uchastkalarni boshqarishdan ancha farqlanadi.

Yer resurslarini boshqarishning maqsadi, mohiyati va vazifasini mustakil O'zbekiston jamiyatining bugungi kundagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy harakati belgilab beradi.

Boshqarish ob'yekti O'zbekiston Respublikasining yer fondidir, uning sub'yektlari ma'muriy-hududiy birliklar, tumanlar, shaharlar. yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarining yer uchastkalaridir.

Boshqarishning tarkibiga yerdan foydalanishni tashkillashtirish jarayoni ham kirib, u ma'lum hududny chegara doirasidagi aholining xilma-xil ehtiyojlarini ta'minlaydi, ehtiyojlar yerdan foydalanishning boshqarishga tegishli bo'lgan turli-tuman usullarini qo'llashni takozo etadi.

Bunday usullarga quyidagilar kiradi:

- yerdan foydalanuvchi chegarasi qamrovida hududiy tashkillashtirishni amalga oshirish;
- yerdan foydalanish jarayonining muxandislik ta'minoti (muxandislik kommunikatsiyalari);
- yer uchastkasiniig huquqiy makomini o'rnatish (mulkchilik, foydalanish maqsadi, ijara, chegaralash, saklash vazifasi va boshqalar);
- yerdan foydalanishning turlari (foydalanishga ruxsat berilganligi) va yo'nalishlarini o'rnatish;
- yerdan foydalanishda samarali iqtisodiy va ekologik texnologiyalarini tatbik etish;
- yerning tabiiy va iqtisodiy holatiiiing taxlili;
- yerning miqdor va sifat holatiga va maqomiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa tadbirlar.

Boshqarish tizimining ishlab chiqarish va yaratish jarayoniga ob'yekti va predmetidan tashkari boshqaruvining maqsadi va vazifalari ham ta'sir ko'rsatadi. Maqsad va vazifalar esa jamiyat tomonidan qisqa mudlatda shakllantiriladi. Chunonchi, maqsad va vazifa boshqarishning predmeti va ob'yekti holatini

hisobga olish bilan shakllanadi. Shakllanib bo‘lingan maqsad va vazifa esa ularni realizatsiya qilish paytida boshqarishning predmeti va ob‘yektini shakllantiradi. Yer resurslarini boshqarishning maqsadi jamiyatning mujassamlashgan ehtiyojini ifodalashdir. Maqsad yer resurslari xususiyatlaridan foydalanish asosida qondirish holatining kelajagi va ulardan foydalaniish jarayonini aks ettiradi. Yerdan foydalanishning o‘zi bu yer resurslariga ayrim sub‘yektlar yoki jamiyatning bevosita ta‘sir ko‘rsatishidir. Shu bilan birga har qanday ta‘sir ko‘rsatuvchi yerning aniq xususiyatini iste‘mol qilish tushuniladi.

Jamiyat alohida sub‘yektlar maqsadini ularning ommaviyligi va xilma-xilligi sababli to‘la nazorat qilishga qodir emas. Bu jarayonlar boshqarishda yerdan foydalanishning umumiy qoida va chegaralarining o‘rnatilishini talab qiladi. Bunday chegaralar foydalanish qoidalarini huquqiy rasmiylashtirish yer munosabatlarini chegaralash va foydalanish tizimini o‘rnatish asosida yaratiladi. Bunday holat yerdan foydalanishning har qanday holati uchun xosdir va yer resurslarining barcha tizimlari uchun umumiy bo‘lib hisoblanadi.

Yer resurslarini boshqarishning maqsadi, umumiy kurinishda yerdan foydalanish bilan bog‘langan jamiyat ehtiyojini yanada yuksak darajada qondirishga imkon beradigan yerdan foydalanishning va yer munosabatlari tizimining shakllanishini ta‘minlash va yaratishdan iboratdir.

Vaqtning aniq paytida, ya‘ni ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik yoki ularning o‘zaro birligida maqsad alohida e‘tiborni ifodalashi mumkin Mamlakatimiz mustakillikka erishgunga kadar qishloqlar va shaharlar hududida ijtimoiy aspekt ustunlikka ega edi. O‘sha paytda aholining barcha ehtiyojlarining maksimal qondirilishi mumkinligiga urg‘u berilgan. Hozirgi paytda yer bozori rivojlangan sharoitda iqtisodiy aspektni hisobga olishning qayta mo‘ljallanishi ro‘y berdi, ya‘ni maksimal iqtisodiy samaradorlikka erishish mo‘ljallanmoqda. Bu esa ko‘pincha xarajatlarni qoplash va byudjetga pul tushumining ko‘rinishini ifodalaydi. Biroq boshqarishning maqsadini aniqlashda ijtimoiy yo‘nalish inobatga olinmasa, vaziyat keskinlashuvi yuzaga kelishi mumkin. SHuning uchun yer resurslarini boshqarishning maqsadi turmush sharoitlarini ijtimoiy va ekologiya jihatdan yuqori darajasi-

ni ta'minlashga imkon beradigan yerdan foydalanish va yer munosabatlari tizimining amal qilishini ta'minlash va yaratishdan iboratdir. Boshqarishning sub'yektlari quyidagilarga bo'linadi: davlat, mahalliy va xo'jalik boshqaruvini amalga oshiradigan sub'yektlar. O'z navbatida, davlat boshqaruvi umumiy va idora (tarmoq) boshqaruviga bo'linadi.

Davlat boshqaruvini umumiy va maxsus huquq doirasiga ega bo'lgan organlar amalga oshiradilar. Davlat boshqaruvida O'zbekiston Respublikasining belgilangan tetrasidagi yer toifalari va yer uchastkasidan foydalanuvchi sub'yektlar bo'yicha yer resurslari taqsimoti amalga oshiriladi.

Mahalliy boshqaruvni mahalliy o'z-o'zini boshqaruv organlari amalga oshiradilar. Bunda boshqaruv maxsus huquqiy maqomga ega bo'lishi mumkin. Yerdan foydalanishda xo'jalik boshqaruvini yer uchastkasidan foydalanuvchilar va mulkka egalik qiluvchilarning o'zlari amalga oshiradilar. Yer resurslarini boshqarish majmualari tavsifga ega, chunki yer munosabatlari sub'yektlarning manfaatlariga tegishli bo'lib, yerdan foydalanish va uni muxofaza qilish jarayonini boshqarishga tizimli yondashuvni ko'llab-kuvvatlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Tashkiliy, texnologik echimlarni ekologik-iqtisodiy okibatlar imkoniyatlari bilan bog'lashni talab qiladi.

Yer resurslarini boshqarish bo'yicha ijroiya - farmoyish berish organlari faoliyatining mazmuni yer resurslaridan foydalanishni rejalashtirish va bashoratlantirishdan iborat, ya'ni yerlarni qayta taqsimlash va taqsimlash, yerdan foydalanish, erga egalik qilishning tartibi va me'yorini belgilash: yerlarni muxofaza qilish va yerdan foydalanganligi uchun faoliyatini nazorat qilishni tekshirish va tekzor - farmoyish berish. Yer resurslarini boshqarish tizimida kechadigan jarayonlar asosini uzluksiz axborot almashuvi tashkil etadi. Bu almashuvni ta'minlaydigan vosita yer kadastrasi va yer monitoringi hisoblanadi.

Axborotlarni to'plash, ishlov berish va ularning taxlili yaxlit boshqarish tizimining mohiyatini belgilaydi. Shuning uchun axborotlar boshqarish komponentlarini aniqlash va ularning ma'muriy hudud darajalarida o'zaro aloqadorligi ham muhimdir.

Axborotlarning manbai yer kadastrisi xizmati va boshqa idoralar, shuningdek, hokimiyatning ijroiya organlarining materiallari bo'lishi mumkin: kartografik material, reestlar, hisobotlar, kitoblar va qaydnomalar, kataloglar, referatlar, ekspertlar ma'lumotlari, qomuslar, boshqa tekshiruv hamda taxlil materiallari.

Viloyat va tuman (shahar) organlari tomonidan quyidagi holatdan kelib chikkan holda yer resurslarini boshqarishni amalga oshirish kerak:

- er uchastkalari aniq hududlarda istikomat kiluvchi aholiga va davlatga tegishli. SHuning uchun ulardan foydalanish bo'yicha farmoyish berish hamda yer resurslaridan foydalanganlik uchun mas'uliyat masalalari bo'yicha tuman (shahar), viloyat va davlat organlari o'rtasida muvofiqlik zarur;

- yer resurslaridan foydalanish natijasidan mintaqaning barcha aholisi manfaatdor bo'lishi kerak;

- O'zbekiston Respublikasining yer kodeksiga binoan, ijara shartnomasi asosida yerdan foydalanish pullik bo'lishi kerak. Yerdan foydalangan uchun to'lov hajmi yerlar tasarrufiga kiritilgan hokimiyat organlariga viloyat hokimiyati qarorlariga muvofiqlikda, davlat yer kadastrisi baholash natijalari asosida belgilangan bo'lishi kerak;

- yer obroti, (ya'ni, yer uchastkalari bilan bog'liq barcha turdagi kelishuvlar) viloyat hokimiyati o'rnatgan koida bo'yicha amalga oshirilgan bo'lishi kerak. Bunda, yer resurslarini taksimlash va ulardan foydalanish sohasida vakolatlarni chegaralash to'g'risida shartnomada nazarda tutilgan, mintaka sharoitlari xususiyatlarini hisobga olishning majburligi inobatga olinishi kerak

- agarda bu foydalanish jarayonida atrof-muhitga yoki aholining turmush sharoitiga zarar etadigan bo'lsa, viloyat hokimiyati har qanday mulkdorning yerdan foydalanishining chegaralanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yer resurslarini boshqarish sohasida mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari bilan viloyat organlari manfaatlari, asosan, mos keladi. Birok, manfaatdorlik mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarini mahalliy byudjetni shakllanishida yer resurslarini boshqarish muammosi, asosan faqat moliyaviy nuqsgai-nazar bilan hisobga olinadi.

Tuman (shahar) hududlaridagi yerlarni boshqarish o‘z-o‘zini boshqarish organlari qabul qilgan me‘yoriy huquqiy xujjatlar asosida olib boriladi. Har bir xujjat mavjud maqsad va tartibni amalga oshirishga ta’sir ko‘rsatadi. Amaldagi qonun bilan muvofiqlikda ayrim masalalar bo‘yicha mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari yer munosabatlarini qaror topishi va rivojlanishiga viloyat hokimiyati darajasida yer masalasini echishni kutmasdan faol ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tuman (shahar) hokimiyati tomonidan yerlarni boshqarishni ta’minlovchi asosiy harakatlar quyidagilardan iborat:

- yerlardan foydalanishning muntazam tartibga solish va rejalashtirish;
- yerlarni foydalanish iste’molidan chiqarib olish va takdim etish;
- yer monitoringi yuritish va yer tuzish ishlarini amalga oshirish;
- yerlarni muxofaza qilish va foydalanish bo‘yicha nazoratni ta’minlash.

Yerlarni boshqarish harakati huquqiy nuqtai nazardan turli xil tavsifga ega. Masalan: yer uchastkasini taqdim etish va iste’moldan chiqarib olish bo‘yicha harakatlar huquqiy maqom tavsifiga ega: yer kadastrini yuritish bo‘yicha va huquqiy makom, yerlar muxofazasi bo‘yicha huquqiy maqomlar kabi.

Yerdan foydalanish bo‘yicha farmoyish berish (mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari huquq doirasida) maqsadli vazifalarni belgilash bilan, yer uchastkalaridan umumiy foydalanishlarni yoki boshqa yerlarni iste’moldan chiqarib olish bilan yer uchastkalarini mulkchilikka, ijaraga, doimiy foydalanishga taqdim etish bo‘yicha huquqiy xujjatlarni nashr ettirish yo‘li bilan amalga oshiradi.

1990 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi yer kodeksining ayrim jihatlari bugungi jamiyatda amalga oshirilayotgan tub islohotlar sharoitida zamon talab darajasiga mos kelmay koldi. yer uchastkalarini taqdim etish va iste’moldan chiqarib olish tartibini belgilaydigan yer kodeksining moddalarida yer rejali kurilishlarni amalga oshirish uchun o‘rmon yoki qishloq xo‘jaligi vazifalaridan, yer toifasiii bir turidan ikkinchi turiga o‘tkazish, iste’moldan chiqarish masalalari amalga oshiriladi. Ammo, yer fondining tarkibiy tuzilishi doimiy emas. Iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy omillar ta’siri ostida yer fondining toifalari nisbatan o‘zgarishi yoki hatto yangi toifalar shakllanishi mumkin. Mustaqillik davrigacha kurilish

ob'yektlari o'rni aniq belgilangan va u shaharsozlikning asosiy xujjati bo'lgan. Shaharning bosh rejasi-hozirgi vaqtda aholi punkti hududlari rivojlanishining tadbirlari sifatida ishlab chiqilmoqda. Shuning uchun aholi punkti hududlarida bosh rejada nazarda tutilgan kurilishning muhim ob'yektlari ham, vaqtinchalik ob'yektlari ham paydo bo'lish ehtimollari mavjud. Masalan: savdo rastalari, chodirlar, bekatlar majmuasi. Yangi shakldagi yerdan foydalanuvchilarga esa yer uchastkalarini ajratish tartibi aniq belgilanmagan. Shu munosabat bilan yuqorida ta'kidlab o'tilgan ob'yektlarni joylashtirish va ularga yer uchastkalarini ajratish tartibini mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari o'rnatishlari kerak.

Tuman (shahar) hokimiyati yer resurslarini boshqarish sohasida yangi yo'nalish, ya'ni davlat yer kadastrining ma'lumotlari asosida yerlardan foydalanishning istiqbol rejasini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq- Bunda yer uchastkalaridan foydalanish bo'yicha boshqaruvchilik qarorlarini asoslashda omillarni hisobga olish, samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash ishlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari qabul qiladigan qarorlariga ta'sir ko'rsatishi asoslangan bo'lishi kerak.

Bunday omillarga quyidagilar kiradi:

- yer uchastkasining mo'ljallangan foydalanish maqsadiga muvofiqligi (o'rnatilgan joyi, ekologik vaziyat, foydalanishdagi cheklash);
- iqtisodiy ko'rsatkichlar (er uchastkasining qiymati yoki ijara haqining hajmi, uchastkani o'zlashtirish sarf-harajatlari, qo'yilgan maqsadga erishish uchun kapital qo'yilma);
- salbiy jarayonlar qo'yilgan maqsadga erishilgandan keyin paydo bo'lishi ham mumkin (ekologik vaziyatning yomonlashuvi, belgilangan me'yorlarning buzilishi, ijtimoiy taranglik va mojaroli vaziyatning vujudga kelishi, uchastkadan foydalanish bo'yicha cheklashlar);
- qo'yilgan maqsadga erishilgandan keyin rejalashtirilgan foyda.

Bu jarayonda yer resurslaridan foydalanishning miqdoriy holati aniqlanishi kerak. Turli xil yechimlar samaradorligining qiyosiy taxlili o'tkaziladi. Shulardan kelib chikib, taklif qilinadigan variant huquqiy ruxsat etilgan, jismonan mumkin,

moliyaviy jihatdan o'zini oqlagach, keyin hokimiyatning davlat yoki Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan qarorlar qabul qilish uchun takliflar ishlab chikadilar.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining va tuman hokimiyatining o'zaro munosabatlari natijasi sifatida birinchisi uchun aholining ehtiyojini qondirish kerak, ikkinchisi uchun soliq va boshqa moliyaviy tushumlar olishi kerak. Shuningdek, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari to'plagan moliyaviy mablag'lar hududning barcha aholisini turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Tuman (shahar) hokimiyati boshqaruvining asosiy vazifalardan yana biri o'zini barqaror faoliyatini ta'minlashdan iboratdir. U o'z moxiyati bilan dinamik muvozanat kolatida bo'lishi kerak. SHunga o'xshash ob'yektlar uchun ikkita asosiy xususiyat tavsiflidir:

- ob'yektning tarkibiy qismlari ularning joylashish maqomi va foydalanish ko'lamini;
- vaqt bo'yicha o'lchamlarning o'zgarib turishi.

Shuning uchun tuman (shahar) hokimiyati boshqarish tarkibini tuzish paytida boshqaruvchilik faoliyatining barcha yo'nalishlari tarkibi ta'minlanishi kerak.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining tashkiliy tuzilishi bir biridan jiddiy farqlanishi lozim. Bu tafovut ham ob'yektiv, ham sub'yektiv sabablarga bog'liq. Ob'yektiv sabablarga hokimiyat hududida mavjud shaharlarni bunyod etuvchi korxonalar uy-joylarga ega va ularni saqlab turadi, suv va issiqlik bilan ta'minlaydi. Ular umumshahar vazifalarini bajaradilar va boshqalarni ham uy-joy bilan ta'minlashi mumkin. Sub'yektiv sabablarga mahalliy o'z-o'zini boshqarishning rahbari o'zining tajribasi, bilimi va maqsadlarini hisobga olish bilan yer resurslarini boshqarish jarayonida shakllanadi. Umumiy holda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari: ish yuritish maqsadi, qaror qabul qilish uslubi, vazifalarni bajarish turi kabilarga bo'linadi.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining maqsadli ish yuritishi bo'yicha ular nafaqat mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni yechadilar, balki

hokimiyatning davlat organlari zimmasiga yuklatilgan ayrim davlat vakolatlarini ham bajaradilar. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari mustakilligining kengayishi bu masalada umumjahon tendensiyasining jarayonlarga moslashuvi ro'y berayotgani ko'rsatadi. Biroq, bu jarayonga mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, sohasidagi ilmiy xodimlar va aholi tomonidan munosabatlar bir xil emas.

Qarorlar qabul qilish uslubi vaziyatga qarab ishga solinadi. Ular jamoa yoki yakka tartibda qabul kilinishi mumkin.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining tashkiliy tuzilish sifatidagi rolini qarab chiqamiz. Ular mahalliy o'z-o'zini boshqarish shakli, hududiy tuzilishi (mahalliy uyushmalar) aholisining nomidan ish yuritadilar. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: ular, ya'ni organlar muayyan ob'yektga ob'yektiv tarzda xos bo'lgan ikki turdagi vazifalarni amalga oshirishlari kerak:

- uning manfaatini ifodalashi;
- bu manfaatlarni amalga oshirish.

Bu ikki turdagi vazifalarga ikki turdagi organlar muvofiq keladi:

- vakolatli va ijroiya organlari.
- ijroiya.

Shahar hokimiyatida yer resurslarini boshqarish xususiyatini ko'rib chiqamiz:

- shahar hokimligi - shahar o'z-o'zini boshqarishning vakolatli organi;
- shahar ma'muriyati - ijroiya organ, u orqali o'z-o'zini boshqarishni shahar hokimi hudud bo'yicha o'zining vakolatini amalga oshiradi;
- qishloq fukarolar yig'ini ma'muriyati-ijroiya organdir, ular orqa mahalliy o'z-o'zini boshqarishning shahar hokimi o'zining vakolatini amal oshiradi.
- oqsoqollar - posyolkalar, qishloqlar, ovullarning saylangan mansabdor shaxsi:

1) Tuman (shahar) hokimiyatining yer resurslarini boshqarish bo'yich tamoyillari (maqsadli mo'ljal tamoyili):

Har qanday hokimiyat tuzilishining maqsadi birgalikdagi faoliyatning muayyan maqsadlariga tayanadi. Rivojlanish maqsadlarini xatosiz aniqlash va

oʻrnatishni bilish boshqarishning eng muhim va ahamiyatli jihatidir. Hokimiyat faoliyatining maqsadi va vazifalarining dastlabki aniqlanishi oʻzining huquq doirasini shakllanishi paytida roʻy beradi.

Mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlarining huquq doirasida boʻlishining ikkita usuli bor:

- qonun orqali davlat tomonidan muayyan vazifalarning yuklatilishi: Bu huquq Oʻzbekiston Respublikasining «Oʻzbekiston Respublikasida Mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish toʻgʻrisida»gi qonunining 6-moddasida koʻrsatib oʻtilgan.

- nizomi orqali aholi tomonidan muayyan majburiyatlarni yuklatilishi.

Shunday kilib, davlat va aholi oldida mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlarining majburiyatlari chegarasi shakllanishi amalga oshiriladi. Bu chegaralar doirasida mahalliy hokimiyat birlamchi yoʻnalishining rivojlanishi shakllanadi. SHunga muvofiq ravishda mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlarining ijroiya tuzilishi shakllanishi zarur.

Mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlari ehadigan vazifalar ularning vakolatlariga toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻlangan. SHuning uchun hududda turmush va xoʻjalik yuritish sharoitlarida roʻy berayotgan oʻzgarishlarni kuzatib borish juda muhim.

2) Vazifalarni gorizantal boʻlinish tamoyillari.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlari bajaradigan vazifalar xilma-xildir. SHuning uchun mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlari tuzilishlari Oʻzbekiston Respublikasida mahalliy oʻz - oʻzini boshqarish» qonunida koʻzda tutilgan.

Hududiy vazifalarni taksimlanishi deganda bir xil darajadagi mansabdor shaxslar va organlar oʻrtasidagi vazifalarning chegaralanishi anglashiladi. Mahalliy oʻz-oʻzini boshqarishning ijroiya organi quyidagilarni amalga oshirishi kerak:

- ijoriya farmoyishini berish vazifasi;

- mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari yuritishlariga kiritilgan mahalliy byudjet, hududning ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishi majmuasi va boshqa masalalar bo‘yicha takliflar tayyorlash.

Ijroiya organining tuzilishini rejalashtirishga kirishishdan oldin, boshqaruvchilik qarorini qabul qilishniig har bir bosqichida uning roli va o‘rni kuzatilishi zarur. O‘tkazilgan taxlil natijasida Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarishning ijroiya organi echadigan barcha masalalar majmuasini kamrab oladigan faoliyat tuzilishi bo‘linmalarini bir nechta guruhlarga ajratish mumkin:

- moliyaviy va iqtisodiy rejalaigirish, analitik, ma‘muriy bo‘linmalar nazorati vazifalarini bajaradigan umumiy huquq doiralari bo‘yicha bo‘linmalari tuzilishi;

- shahar xo‘jaligi va boshqarishning aniq tarmog‘i bilan shugullanuvchi bo‘linmalarning tarmoq tuzilishi:

- ikkita birinchi guruhga kiritilgan servis xizmat ko‘rsatish tuzilmalari vazifasini bajaruvchi bo‘linmalar.

Ijroiya organining tuzilishini rejalashtirish paytida o‘sha yoki boshqa vazifaga tegishli tuzilmaviy bo‘linmalarning qaysi turdaligini belgilash muhimdir. Chunki bunday bo‘linmalar tuzilishining salohiyati xodimlarning joy-joyiga qo‘yilishiga bog‘liq.

3) Vazifalarni vertikal taksimlash tamoyili.

Tuman (shahar) hokimiyati hududida qator viloyat, respublika va mintaka tuzilmalari mavjud, Ularsiz hokimiyatni boshqarish mumkin emas. Ularga quyidagilar tegishli:

- viloyat va mintaqaga buysunadigan har qanday mulkchilikning xo‘jalik yurituvchi sub’yektlari;

- mintakalar yoki viloyatdagi boshqarish organlari mavjud bo‘lgan fuqarolar birlashmasi, jamoat tashkilotlari va boshqalar;

- viloyat ma‘muriyatlarining hududiy bo‘linmalari.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining yukorida sanab o'tilgan guruhlari, bir qancha vazifalarni ijro etish mumkin. Masalan, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar me'yoriy organ sifatida, muayyan turdagi ishlarga buyurtmachi sifatida, xo'jalik faoliyatini bajarish uchun sharoit yaratib beruvchi tashkilot sifatida ish yuritishi mumkin.



5-rasm. O'zbekiston Respublikasida YERSFB tizimining shakliy chizmasi.

Agar bu tadbirlarni ilmiy asoslangan holda tashkil etish asosida xalq xo‘jalik tarmoqlarini mutanosib rivojlanish qonuniyatlariga rioya etgan holda mintakaviy miqyosda yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish boshqarilgandagina boshqaruv vazifasi tushunchasi o‘zining to‘liq mohiyatiga ega bo‘lardi.

Aynan shundagina YERSFB mazmuniga to‘g‘ri keladigan yechimga yerishish mumkin.

YERSFB ning har bir bloki (qismi)ning o‘z vazifasi mavjud, ular quyidagilardir:

1. Yer resurslarini kompleks o‘rganish.

Bu blok davlat miqyosida xalq xo‘jalik tarmoqlari bo‘yicha yer resurslarining miqdori va sifati, tashkiliy masalalarni hal etilganlik darajasi va samarasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlari bilan yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish jarayonini ta‘minlashga qaratilgan bo‘ladi. Ma‘lumotlar yer kadastrini informativligiga asoslangan bo‘lib, respublika miqyosida tashkil etiladigan ma‘lumotlar bankida yig‘iladi va uzluksiz ravishda unga o‘zgartirishlar kiritib boriladi. Ushbu blok vazifasiga yer resurslari to‘g‘risidagi barcha ilmiy — amaliy tadqiqotlar, maxsus dala tekshiruv natijalari, xaritalash ishlari bo‘yicha ma‘lumotlarni yig‘ish va saqlash ham kiradi. Bundan tashkari, bu blokga ilmiy asoslangan va amalda ko‘llanadigan informatsiya markazlarini yaratish hamda ularning uzluksiz ishlashini ta‘minlash ishlari ham kiradi.

2. Yer kadastrini to‘liq joriy etish.

Ma‘lumki, 1996 yildan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida «O‘zgeodezkadastr» bosh boshqarmasi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bosh boshqarmaning «Davlat kadastrlar tizimi» boshqarmasida 20 ta yo‘nalishdagi kadastrlar, shu jumladan, ularning eng asosiysi bo‘lgan yer kadastr xizmati yo‘lga qo‘yilgan. yer kadastr o‘z mohiyati, maqsadi va vazifalariga ko‘ra to‘rt tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, ular yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarni ro‘yxatga olish, yerlarni miqdor va sifat o‘lchovi, yerlarni bonitirovkalash va iqtisodiy baxolashdan iborat.

Tarkibiy qismlar bo'yicha belgilangan tadbirlar amalga oshirilgandagina yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishga to'liq zamin tayyorlanadi, deb hisoblaymiz.

3. Tarmoqlararo va tarmoq ichidagi muqobil yer taqsimoti.

Bu blok respublika yer fondini muqobil ravishda ilmiy uslubiy jihatdan to'liq asoslangan holda xalq xo'jalik tarmoqlari o'rtasidagi yer taqsimotini amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni o'z ichiga oladi. Har bir tarmoq o'z navbatida, bir nechta soha, sohalar esa ixtisosliklardan iboratligini nazarda tutsak, bu muammoning naqadar chuqurligini his etish mumkin, Demak, yer fondini aynan shu darajalardagi taqsimoti ushbu blok mazmunini tashkil etadi.

4. Yer resurslarini prognozlash.

Bu blok yer resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, ularni muxofaza qilishga asoslangan holda prognozlash masalalarini o'z ichiga oladi. Bu blok o'z mohiyatiga ko'ra yer resurslaridan foydalanishni bosh ishlanmasi (sxemasi) va yer tuzish ishlanmasidan iborat bo'lishi kerak. Blokning asosiy vazifasi xalq xo'jalik tarmoqlari taraqqiyotiga mos holda yillik va uzoq muddatga mo'ljallangan yer resurslariga bo'lgan talabning ta'minoti bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni belgilab berish hisoblanadi. Ushbu blok oldingisi bilan chambarchas bog'langan holda amalga oshiriladi.

5. Yer tuzishni loyihalash.

Bu blok oldingi blokning mantiqiy davomi sifatida undagi belgilovchi ko'rsatkichlarga mos ravishda yer tuzish tadbirlarini tumanlar va xo'jaliklararo va yer egaligi hamda yerdan foydalanuvchi darajasida oshirishga qaratilgan. Bu blok amalda yer tuzishga oid barcha ishlab chiqarish jarayonlarini o'z ichida mujassamlashtiradi. Blokning mohiyati boshqaruv vazifasidan kelib chikkan holda: amaldagi va yangidan tarkib topadigai yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarni hududiy tashkil etish bo'yicha ijtimoiy- iqtisodiy jihatdan asoslash; xalq xo'jaligi tarmoqlari ehtiyojiga mos keladigan yer tanlash va yer ajratish loyihalarini amalga oshirish; sug'orish va yo'l tarmoqlarini loyihalash va

boshqa loyihaviy ishlanmalarni yaratish hamda amalga tadbiq etish masalalarini hal etishga qaratilgan bo‘ladi.

Xulosa kilib aytganda, yer tuzish mazmunan turlicha bo‘lgan juda ko‘p iqtisodiy, huquqiy, texnik va ekologik tadbirlarni o‘z ichiga olgan murakkab tizim bo‘lib, yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishning o‘zagini tashkil qiluvchi blok vazifasini bajaradi. Blok yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishning yagona tizimini yaratishdagi ahamiyati bekiies hisoblanadi.

6. Yer munosabatlarini tartibga solish.

Ushbu blok boshqaruvniig huquqiy asoslariga suyangan holda ishlab chiqarish munosabatlari tarkibida yer munosabatlarini tartibga solishga xizmat qiladi.

7. Tezkor boshqaruv.

Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishda tezkor boshqaruvning salmoqli o‘rni bor. Jamiyatdagi iqtisodiy, texnik, huquqiy va ekologik tadbirlarni amalga oshirish jarayonida hozirgi fanda tezkor uslublar, jumladan, yer resurslaridan foydalanishdagi mulkchilik munosabatlari, tezkor yer hisobi va uning baxosiga bo‘lgan talab kuchayib bormokda. Bugungi kunda respublika mikyosida har kuni o‘nlab yoki yuzlab yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar tashkil etilmoqda. O‘z navbatida, ishlab chmqarish jarayoniga mos holda yer va ekin turlari maydonida ham o‘zgarishlar qayd etiladi. Bularning barchasi yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishda tezkor boshqaruv uslublarini qo‘llashga undaydi. Tezkor ma’lumotlar yig‘ish va informatsiya bankiga kiritish aynan shu blokning vazifasidir.

8. Yerdan foydalanishning nazorati va yerlarni muxofaza qilish.

Bu blok davlat organlari tomonidan yer egaligi va yerdan foydalanuvchnlarning yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishga oid faoliyatini huquqiy jihatdan nazorat qilishga qaratilgan.

Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish vazifasining tizimi professor S.A.Tkachuk tomonidan birinchilardan bo‘lib ishlab chiqilgan. Bu tizimda quyidagi boshqaruv vazifalari aniqlangan:

1. Yer resurslarini xaritalash va o'rganish.
2. Yer resurslari kadastrini joriy etish.
3. Yer resurslarini prognozlash.
4. Yer resurslaridan foydalanish va ularni muxofaza qilishni rejalashtirish.
5. Yerdan foydalanishni loyihalash.
6. Yerdan samarali foydalanishni iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish.
7. Yerdan foydalanish va muxofaza qilishni nazorat etish.
8. Yerdan foydalanish bo'yicha nizolarni hal qilish.

Albatta, ushbu tizim ma'lum ma'noda YERSFB ning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Lekin bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini xalq xo'jaligining barcha sohalariga bo'lgan ob'yektiv ta'siri keltirilgan tizimga juz'iy tuzatmalar kiritishni takozo etadi. Masalan, tarmoqlararo va tarmoq ichidagi yer taqsimoti, yer toifalaridagi ob'yektiv o'zgarishlar, yerdan foydalanish bo'yicha huquqiy masalalar qayd etilgan tizimni takomillashtirishga asos bo'ladi. Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish vazifalarini ilmiy va amaliy jihatdai o'rganish va taxlil qilish natijasida quyidagi o'zaro uzviy bog'liq. bo'lgan tizimni tavsiya etamiz:

1. Yer resurslarini kompleks o'rganish.
2. Davlat kadastrlar tizimi tarkibida yer kadastrini joriy etash.
3. Yer resurslarini tarmoqlararo va yer toifalari bo'yicha taqsimoti.
4. Yer resurslarini prognozlash.
5. Yer tuzishni loyihalash.
6. Yer munosabatlarini tartibga solish.
7. Yerdan foydalanishni nazorat qilish va yerdan foydalanuvchilarni rag'batlantirish.
8. Yerga egalik qilish va foydalanish bo'yicha huquqiy asoslarni takomillashtirish hamda nizolarni hal etish.
9. Boshqarish vazifalari tizimida bog'liqlik va uzluksizlikni ta'minlash va belgilangan tadbirlarni hayotga tadbiq etishga erishish.

Taklif etilgan vazifalarni bir nechta yoʻnalishlardan iborat kilib bajarish koʻzda tutiladi. Masalan, yer kadastrini joriy etishda davlat kadastrlari tizimidagi oʻrnini, vazifasini bilgan holda «Yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarni roʻyxatga olish», «Yerlarning miqdor va sifat oʻlchovi», «Yerlarning iqtisodiy bahosi» kabi masalalarni alohida va uzviy bogʻliqlikda koʻrib chiqishni taqozo etadi.

Demak, yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish -iqtisodiy texnik, tashkiliy-xoʻjalik va huquqiy jihatdan davlat tadbirlar tizimi boʻlib, yer munosabatlarni tartibga solish, yer resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil qilish va muxofaza qilish da jamiyat hamda yer egaligi va yerdan foydalanuvchilar manfaatlarini uygʻunlashtira oladigan tadbirlar kompleksi hisoblanadi.

Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish tarkibiga yuqorida berilgan 9 vazifa kiradi. Bu tizimda «taxlil — prognoz — loyiha — yechim» har bir yer uchastkasidan yaxlit davlat yer fondi darajasigicha va uning aksi boʻlgan pogʻonalar boʻyicha ishlashni hamda tadbirlarni oʻz ichiga oladi. Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish maqsadi va vazifalari "boshqarish" tushunchasi bilan bogʻliq boʻlib, bu maʼlum tizimga ega boʻlgan jarayondir. Har qanday boshqaruv kabi yerdan foydalanishni boshqarishning ham oʻz maqsadi boʻladi. Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishning uzok, muddatli va yaqin davrga moʻljallangan maqsadlari davlat yagona yer fondidan xalq xoʻjalik tarmoqlari va ularning sohalari hamda yer egalari va yerdan foydalanuvchilari oʻrtasida oʻzaro manfaatlarini hisobga olgan holla eng koʻp samara olish uchun belgilanadi. Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish omilkorlik darajasi mazmuniga va maqsadiga koʻra resurslar tejamkorligi texnologiyasiga, keng maʼnoda esa yerdan foydalanishda resurs tejamkorligi tizimiii yaratish bilan oʻlchanadi. Oʻz navbatida yer resursi tejamkorligi dalat-ning yagona yer fondini toifalar, yerdan foydalanuvchilar va yer turlari boʻyicha taqsimotida oʻz aksini topishi zarur.

Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishi amalga oshirishda uning mohiyati va vazifasiga koʻra xalq xoʻjaligining eng dolzarb muammolari qoʻyiladi. Ularning asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

1. Yer munosabatlarini rivojlantirish qonuniyatlarini o'rganish va taxlil qilish natijasida bu jarayonni uzluksiz takomillashtirib borish.

2. Hozirgi davr va istiqbol uchun ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvini ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan eng kulay sharoitlar yaratish.

3. Yer fondi, yer toifalari, xalq xo'jalik tarmoqlari, yerdan foydalanuvchilar va yer turlari bo'yicha taqsimotini davr va hududiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda mutanosib holda ta'minlash.

4. Yer resurslarini kengaytirilgan takror ishlab chiqishini va tuproq unumdorligini uzluksiz iqtisodiy o'sishini ta'minlash.

5. Har bir yer uchastkasidan samarali foydalanish uchun iqtisodiy va ekologik zamin yaratish.

6. Resurslar mutanosibligini ta'minlash.

Yuqoridagi vazifalarni samarali va oqilona bajarish uchun ERSFBning barcha funksiyalarini birlashtirish asosida faollashtirish zarur bo'ladi.

Respublika yer resurslaridan, shu jumladan, shaharlar-ga biriktirilgan yer fondidan samarali foydalanishni boshqarish masalalari amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxlarning negizi hisoblandi.

Davlat miqyosida turli ma'muriy-hududiy darajalardagi boshqaruvda shaharlar tizimi muhim o'rin egallaydi. Respublikamizning ma'muriy-hududiy sub'yektlari o'rtasida shaharlar va ularning tasarrufidagi yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishning predmeti, ob'yekti, maqsadi va vazifalarini o'rganish hamda ularni taxlil qilish katta ahamiyat kasb etadi.

Ayrim shaharda yer resurslaridan foydalanishni boshqarish tizimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va boshqaruv masalalarini hal etishda geoaxborot tizimlarining tarkibini aniqlash zarurati ham mavjud. Umuman, barcha joylarda, jumladan, shaharlarda istiqomat qiluvchi fuqarolarning turli hayotiy ehtiyojlarini to'liq qondirishda va samarali faoliyatlarini ta'minlashda yerdan foydalanish jarayoni yer resurslarini boshqarishning predmeta hisoblanadi. Masalan, shahar axolisi uchun ijtimoiy, uy-joy, sanoat, transport, sog'lomlashtirish, ekologik va boshqa sharoitlarni zamon talab darajasida yaratish zaminida yer fondining

muqobil taqsimoti hamda undan samarali foydalanishni boshqarish masalalarini to'g'ri hal etish yotadi.

Shaharda davlat yer siyosatining muhim yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- yerdan foydalanishning samaradorlik mezonini ishlab chiqish;
- shahar xo'jaligiining rivojlanishi va yerlarni boshqarish xususiyatlari, har xil toifadagi yerlarni o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish bilan birga erga bo'lgan huquq munosabatlarida o'zgarish strategiyasini ishlab chiqish;
- davlat, shahar va ijtimoiy ehtiyojlarni ta'minlash, ipotekali kreditlashtirish va ko'chmas mulk bozorining rivojlanishi, uchastkalarni tanlovsiz va tanlov bilan taqdim etilishining optimal balansini belgilash;
- moliyaviy okimlarni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida yer resurslarini boshqarish vazifalarini aniqlash.

Jamiyatda shahar yerlarining roli va vazifalari shu bilan belgilanganki, yerlar inson hayot-faoliyatining xilma-xil turdagi ehtiyojlarini ta'minlashga mo'ljallangan: rekreatsion, madaniy va fiziologik ehtiyojlarni qondirish; hayot faoliyatini ta'minlash bilan uzviy bog'langan ishlab chiqarish faoliyati va bevosita shular bilan bog'lanmagan boshqa yo'nalishlarni ta'minlash.

Yer shaharda tayanch-fazo va bazis sifatida xizmat qiladi. Umumiy ko'rinishda shahar yer resurslarini boshqarishning predmeti hayot-faoliyatining turli xil sohalari (yo'nalishi, tavsifi, texnologiyasi va h.k.) uchun yerlardan foydalanish jarayonidir. Boshqarishning predmeti muayyan xususiyatlarga ega. Bular:

- xilma-xil hayot faoliyati turlarining yer maydoni, birligida yuqori zichligi;
- yer xususiyatlaridan foydalanish vaqtidagi texnologiyalar va usullarning xilma-xilligi.

Bularning hammasi jarayonlar va hodisalarni yaratadi. Boshqarish ob'yekti - yer uchastkasidir, unda yer munosabatlarining bitta sub'yekti bilan yerdan foydalanish jarayoni yetarlicha alohidalashgan shaklda amalga oshiriladi.

Boshqarishning predmeti xususiy ko‘rinishda - yerdan foydalanish jarayonidir. U shahar doirasida aholining barcha, xilma - xil ehtiyojlarini qondiradi va shuning uchun davlat boshqaruvida o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Shahar yerlaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Yer uchastkasining huquqiy maqomini o‘rnatish (mulkchilik, foydalanish, ijara, servitut va boshqalar);
2. Yerdan foydalanish jarayonining axborot bilan ta‘minlanishi;
3. Yer resurslaridan foydalanish jarayonining hududiy tashkil qilinishi;
4. Yerlarning tabiiy va iqtisodiy holatiga ko‘ra ulardan foydalanish tur-larini aniqlash (kengaytirilgan foydalanish).

Boshqarish maqsadini shakllantirish paytida uning ob‘yektlari va sub‘yektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar katta ahamiyatga ega. Masalan; bitta ob‘yektning mavjud paytida (shahar hududlarida) hozirgi vaqtda ularning yerlarini boshqarishning bir nechta sub‘yektlari mavjud. Bu ob‘yektning huquq va xo‘jalik maqomlari bilan bog‘langan. Boshqarish sub‘yektlariga quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi va uning vakolatli organlari;
- viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasi sub‘yektlari va ularning vako-latli organlari;
- tuman qishloq fuqarolar yig‘ini hamda mahalliy shaharlarda o‘z-o‘zini boshqarish organlari va ularning vakolatli organlari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan muvofiqlikda, davlat chegarasi doirasida, shu jumladan, barcha shaharlar ma‘muriy hududlarida qonunlar asosida yer resurslaridan foydalanish ishlari boshqariladi. Yer resurslarini davlat boshqarilishini O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi nomidan maxsus organ o‘zining hududiy organlariga (viloyat, shahar, tuman) ega bo‘lgan-davlat "Yergeodezkadastr" Davlat qo‘mitasi amalga oshiradi.

Viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasi sub‘yekti - O‘zbekiston Respu-blikasi va uning sub‘yektlari o‘rtasida vakolatlarini chegaralash to‘g‘risidagi shartnoma bilan muvofiqlikda davlat yer resurslarini boshqarish bo‘yicha vakolat

oladi. Davlat boshqarish tizimi viloyat darajasida yakunlanadi, quyi joylashgan darajalar «O‘zbekiston Respublikasida mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish to‘g‘risida»gi Qonunning 12- moddasi bilan muvofiqlikda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarishga kiritilgan. Shuning uchun davlat hokimiyatining organlari tomonidan maxsus ruxsatsiz mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari davlat boshqarish ishlari bilan shug‘ullanish tasarrufida bo‘lgan huquqiga ega emas. Ular, shuningdek, boshqarish vazifasining bir qismini davlat boshqarishini sub’yektidan shahar va tuman xizmatiga o‘tkazish yo‘li bilan rasmiylashtirish huquqiga ham ega emas.

Shahar va qishloq fuqarolar yig‘ini doirasida mahalliy ahamiyatga ega davlat mulkchiligida turgan yerlarni umumiy boshqarishni va o‘zining hududlari doirasida mulkchilikning maxsus boshqarish ishini amalga oshiradilar. Shahar hududida umumiy va maxsus boshqarishdan tashqari yer resurslarining idoraviy boshqarilishi amalga oshiriladi va uning ayrim vazifalari amalga oshiriladi. Masalan, yirik shaharlar hududida o‘z - o‘zini boshqarish vazifalarini amalga oshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, tegishli vazirliklar va qo‘mitalar orqali shahardagi yer resurslari va davlat kadastr xizmati quyidagi vazifalarni bajaradi:

- O‘zbekiston Respublikasining xukumati - davlat qo‘mitasi organlari orqali barcha yerlarni umumiy boshqarishni, yerdan foydalanishni tashkil qilish va nazorati bo‘yicha qator vazifalarni amalga oshirishni;
- sog‘liqni saqlash vazirligi va davlat ko‘chmas - mulk qo‘mitasi orqali tabiatni muxofaza qilish maqsadida yerdan foydalanganligi uchun davlat nazoratining bir qismini amalga oshirilishini;
- adliya vazirligi organlari - yer taqsimoti va undan foydalanish bo‘yicha nizolarni echish hamda yer uchastkalaridan foydalanish huquqini ro‘yxatdan o‘tkazishda ishtirok etishini;
- viloyat va shahar ma‘muriyatlari - yer toifalari hamda viloyat ahamiyatidagi yerlarni davlat mulkchiligiga o‘tkazish masalalarini echishdagi ishtirokini;

- boshqaruvchilik funksiyasining bajaruvchi shahar ma'muriyati shaharning o'z hududida uning sub'yektlari faoliyatini yerdan foydalanish bo'yicha taxlil qilish va tadbirlar ishlab chiqishni.

Jamoat tashkilotida o'rni va ahamiyatidan kelib chikib, boshqarish sub'yektlari ko'rib chikilganda har birining yerlarni boshqarishdan maqsadlari har doim ham mos kelavermaydi. Shuning uchun shaharning boshqarishning umumiy tizimini shakllantirish paytida yagona maqsadni ishlab chiqish emas, balki boshqarishning maqsadlar tizimini, ularning pog'onalari va aloqadorligini ishlab chiqish zarur.

Bu davlatning umumiy muammolarini aks ettiruvchi va davlat yer siyosatini amalga oshiruvchi yagona boshqaruv-chilik qarorlarining uzviyligi bir-birini to'ldirishini ta'minlaydi.

Viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi idoralari ko'proq tor maqsadlarga ega bo'lgan yerdan foydalanishning (huquqiy, iqtisodiy, ekologik ijtimoiy) sharoitlarini ta'minlashga intiladilar. Bunda viloyat hududidagi muassasalar, ixtisoslashtirilgan korxonalarining me'yorida ishlab turishlarini ta'minlashga boshqa vazifa deb qaraladi.

Shunday qilib, shaharda yer resurslarini boshqarish, yirik mintaqalar hududlarini boshqarishdan tubdan farq qiladi. Bu shaharda korxonalar aholisining zichligi ijtimoiy, ekologik va transport sharoitlarini keskin o'zgarishi bilan izohlanadi. Shuning uchun bunday sharoitda shaharlar rivojlanishining istiqbol rejalarini ishlab chiqishning roli yanada ortadi. Shaharlarda yerdan foydalanish tartibidagi har qanday o'zgarish rejalarini amalga oshirilishi natijasida o'tkazilishi kerak. Bunday rejalarini joylashish modellari bilan muvofiqlikda yangi shaharlar tuzish paytida yoki shaharlar o'sishi munosabati bilan, shuningdek, tabiatni muxofaza qilish ob'yektlarini qurish paytida tarkib toptan qonun xujjatlari tizimini takomillashtirish asosida ishlab chiqish mumkin. Shahar muhitini umumiy takomillashtirishni amalga oshirish zaruriyati tug'ilganda shaharlar konstruksiyasi o'tkaziladi. Masalan, yirik ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar keltirib chiqargan, shaharlar markazini qayta

qurish yoki ko'chmas mulkka investitsiyalar jalb qilish uchun va transportlar oqimining yo'nalishini ortirish maqsadida shunday tadbirlar ishlab chiqiladi.

Mahallalar tuzilishi sifatida shahar hududlariga tadbiqan prognozlashtirishning vazifasi kelajakni ilmiy asoslashga olib keladi. Shaharning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan okimlar va omillarni aniqlash ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish bo'yicha taxlil o'tkazishni talab qiladi.

Bu talab shahar hududlaridan foydalanishda istiqbol yo'nalishlarining shakllanishiga olib keladi. U hozirgi zamon bosqichida shaharlik yerdan foydalanuvchilarning kelgusida yerdan intensiv foydalanishning modellashtirishda ifodalanadi. Yerdan shaharlar hududlarini rivojlanishdagi hozirgi zamon vazifalari shahar muxitida yangicha yondashuvni talab qiladi. Bunda quyidagi vazifalar majmuasini ko'rsatib o'tish mumkin:

- shaharda tarkib topgan ekstensiv rivojlanishdan intensiv yo'lga o'tish va yerdan foydalanishda shaharning optimal strukturasi tuzish. Bunda shaharda yerdan foydalanishning hozirgi zamon sanoat sohalariga quyiladigan fan-texnika va ekologik-iqtisodiy talablarni hisobga olish zarur;

- yer maydoni birligiga uy-joy va qurilish maydonlarini ko'paytirish, mahsulotlar ishlab chiqarishda yer maydoni sarfini kamaytirish jarayoni bo'yicha fan-texnika yutuqlarini qo'llash asosida shaharning hududiy ichki tuzilishini takomillashtirish;

- mavjud va kelajak maqsadlar o'rtasidagi karama-qarshiliklarni bartaraf etish asosida o'sib borayotgan jamiyat ehtiyojlarining qondirilishini ta'minlash bilan ishlab chiqarishga jalb qilinadigan resurslarning umumiy miqdorini kamaytirish;

- transport yo'nalishlarini kamaytirish maqsadida yerdan foydalanishni va sanoat infratuzilmasini takomillashtirish hamda shahar transport tarmog'ini optimallashtirish;

- majmuaning oqilona rivojlanishiga erishish, shahar landshafti binolari va inshootlarini, muxandislik-kommunikatsion majmua, yer osti inshootlari.

Barcha vazifalar majmuasini hozirgi zamon EHM va prognozashtirishning modellari majmuasini tadbiq. etgan takdirdagina olish mumkin. Hozirgi zamon shahar hududlarini rivojlanish prognozini hisoblab chiqish jarayonida inson yashaydigan muhit fazoviy-tarixiy shakllanishining zamonaviy tendensiyalar majmuasini hisobga olish zarur.

III-bob. YER RESURSLARIKARTALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI JIHOZLASH

3.1. Yer resurslari kartalarini tuzishning metodologik asoslari.

Yaratilayotgan Yer resurslari kartalari seriali, bir-birini to'latadigan, o'quv ma'lumotnomali karta sifatida mo'ljallangan bo'lib, u fermerlar uchun respublikamiz resurslari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatini beradi va shuning bilan birga xalq xo'jaligining eng muhim sohalari bo'yicha chuqur bilimga yani ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Respublikamizdagi barcha fermerlar, suvdan foydalanuvchilar gidrologik ishlar bilan shug'ullanuvchilar savodxonligini oshirish maqsadida foydalanish, hamda, litsey, kollejlarda va oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan kurslar uchun masalan Geografiya, Iqtisodiyot va boshqa qishloq xo'jaligining muhim soxalarida juda yaxshi qo'llanma sifatida foydalaniladi.

Kartaning asosiy maqsadi respublikamiz qishloq xo'jaligi va uning eng yirik bo'g'ini hisoblangan yer va suv resurslarini, uning asosiy tarmoqlari fermerlar, suvdan foydalanuvchilar, ularda sarflanadigan suvlarni va boshqa xo'jaliklarni viloyatlar bo'yicha umumiy va muxum ma'lumotlar bilan qiziqqan har bir foydalanuvchi uchun tegishli ma'lumotlarni berish.

Kartalarning tarkibi maxsus dasturi asosida tuzilishi kerak. Kartalarning tarkibida qo'shimcha qirqim kartalarning bo'lishi va uncha katta bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlarni aks ettiruvchi tablitsalar, diagrammalar, profillar bo'ladi. Shuningdek yordamchi suratlar va rangli fotosuratlarini joylashtirishni amalga oshirish bilan kartalarning sifati yuqori darajaga olib chiqiladi. Yer resurslari kartalari tuzish va undan to'la foydalanish uchun uning xususiyatlarini bilish lozim. Shuning uchun ham kartani tuzishda va undan foydalanishda taxliliy yo'ldan foydalaniladi. Kartaning har bir elementlari aloxida o'rganilishi, bu elementlarning vazifasi, ahamiyati va ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni bilishi kerak. Kartografik tasvir yer resurslari kartalarining negizidir, unda tabiiy va gidrografik voqea va xo-

disalar to`g`risida yetarli darajada ma`lumot berilib, ularning tarqalishi, holati tasvirlanadi. Bu ma`lumotlar yer resurslari kartalarini asosini tashkil qiladi.

Kartaning mazmuni bir qancha geografik elementlardan tashkil topadi. Masalan, Yer resurslari kartasining mazmunini quyidagi elementlar tashkil qiladi: yer va suv ob`ektlari, yer osti va yer usti suvlari, ko`llar, suv omborlari, aholi yashaydigan joylar, aloqa yo`llari va chegaralar. Iqtisod bo`yicha diagrammalarda shu xudud va mamlakatning gidrografik taraqqiyoti uchun xarakterli bo`lgan e`lon qilingan statistik ma`lumotlar bo`yicha farqlanishi lozim. e`lon qilinmagan ma`lumotlar statistika bo`limining yoki tegishli boshqa organlarning ruxsati bilan kartaga kiritilishi mumkin. Kartalar rangli bo`lishi engil o`qilishi va shaffof bo`lishi lozim.

3.2. Yer resurslari kartalarini yaratishning zamonaviy metodlari.

Kartada tasvirlanadigan hududni chegarasini aniqlash va uni karta ramkalariga nisbatan joylashtirish, ramkani ichida va undan tashqarida (asosiy karta bilan uni ramkasi orasidagi bo`sh qolgan joylarda) *kartani nomini, masshtabini, legendasini, har xil raqamli va matnli ma`lumotlarni, jadvallarni, grafiklarni, qo`shimcha kesma kartalarni* va boshqa shunga o`xshash ma`lumotlarni maqsadga muvofiq joylashtirishga *komponovka* deyiladi.

Kartani o`qish va undan foydalanishni osonlashtirish maqsadida unda beriladigan turli xil kartometrik grafiklar, (masalan, topografik kartada chiziqning nishabi va qiyalik burchagini aniqlash uchun, kartaning janubiy ramkasi ostida beriladigan maxsus nomogramma), hududni qay darajada o`rganilganligini ko`rsatuvchi sxemalar, foydalanilgan materiallar (manbalar) shuningdek boshqa har xil zarur spravochnik ma`lumotlar (kartani nomi, nashr qilingan joyi va yili, nashriyot nomi va h.k.) kartaning *yordamchi elementlari* deb ataladi. Karta mazmuni bilan bog`langan, uni to`latadigan, boyitadigan va tushuntiradigan kesma-kartalar, diagrammalar, blok-diagrammalar, grafiklar, profillar, matnli yoki raqamli ma`lumotlar kartaning *qo`shimcha elementlari* deyiladi.

Yerning qavariq yuzasini tekis yuzada, ya'ni kartada matematik yo'l bilan tasvirlash usuli kartografik proyeksiya deyiladi. Kartografiyada yer yuzasini ellipsoid yuza deb qabul qilinib, uni konus va silindrga solib, so'ng yoyib tasvirlanadi. Natijada ochiq joylar (deformatsiya natijasida) hosil bo'lib, bu ochiq joylarni to'ldirib tasvirlash uchun ular «cho'ziladi» natijada tasvirlangan yuzalarning masshtabi hamma joyda bir xil bo'lmaydi.

Kartadan foydalanish uchun uning mazmunini o'qib tushunish, ya'ni karta to'g'risida to'liq ma'lumot olish va kartani o'quvchanligini oshirish uchun kartani tili hisoblangan shartli belgilar to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lmoq kerak.

Kartadagi belgilarning asosiy vazifasi tasvirlanayotgan voqea va hodislarning o'rnini, turini (suv ombori, ko'llar, daryolar, shaharni o'rnini va x.k.), miqdorini sifatini (sho'r bosgan joylar, quduq suvining sifati, daryolardan oqayotgan suvning hajmi va boshqalar), tarqalish xususiyatlarini ko'rsatishdan iborat. Kartografik belgilar, shartli belgilardan mazmunini kengligi, aniq shakli, miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan hamda aniqlilik darajasi bilan farq qilib, kartografiyada legenda deb yuritiladi.

Dastlabki kartalarda voqea va hodisalar suratlar yoki shakllar bilan tasvirlangan, bu esa kartani o'qishni osonlashtirgan. Masalan, tog'lar perspektiv usulda berilib, shakl yordamida tasvirlangan, o'simliklar ham shakllariga qarab ko'rsatilgan (igna bargli va yaproq bargli), lekin ularning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin bo'lmagan. SHuning uchun kartalardan to'liq foydalanish maqsadida va mukammal ma'lumot olish uchun yangi belgilar qo'llanish zaruriyati tug'ilgan. Tanlangan belgilar geometrik shakllarda, badiiy va an'anaviy shakllarda bo'lganidan ma'lum darajada mazmunni anglatadi.

Lekin kartada hamma predmetlarning ham aniq o'rnini kartaning masshtabi asosida tasvirlash mumkin emas, chunki ularning egallagan maydoni juda kichik bo'lib, masshtab asosida ko'rsatilsa, o'qish mumkin bo'lmay qoladi. SHuning uchun bunday predmetlar (tafsilotlar) masshtabsiz belgilar bilan ko'rsatiladi. Masalan, temir yo'llar, elektr, telefon simlari, gaz quvurlari va h.k.lar.

Kartada ob`ektlarni planli geometrik xususiyatlarini berish nuqtai nazaridan kelib chiqib, kartografik shartli belgilar o`z xususiyatlari va vazifalariga ko`ra *masshtabsiz, maydonli (konturli) va chiziqli shartli belgilarga* bo`linadi.

Masshtabsiz shartli belgilar bilan konturlarini karta masshtabida ko`rsatish mumkin bo`lmagan ob`ektlar tasvirlanadi. Masalan, alohida turgan, orientir ahamiyatiga ega bo`lgan daraxtlar, buloq, quduq, tegirmon, zavod va fabrikalar, neft va gaz vishkalari, yodgorliklar va boshqa shu kabi ob`ektlar masshtabsiz shartli belgilar bilan ko`rsatiladi. Bunda ob`ektlarni tashqi ko`rinishi (qiyofasi) saqlanmaydi. Ob`ektning joydagi o`rni esa, odatda shartli belgining markaziga yoki tagiga to`g`ri keladi.

Maydonli shartli belgilar bilan karta masshtabida konturini saqlab qolish mumkin bo`lgan ob`ektlar tasvirlanadi. Masalan, o`rmon, botqoqlik, o`tloq, bog`, poliz, ko`l va boshqalar maydonli shartli belgilar bilan ko`rsatiladi. Ob`ektlarni tashqi ko`rinishi (qiyofasi) saqlanadi. Ularni konturlari turli rangga bo`yaladi yoki boshqa maydonli grafik vositalar bilan to`ldiriladi. Botqoq va sho`rxok erlarning konturlari ichiga turli xil shtrixlar chiziladi. Avval bu belgilar uchun «konturli belgilar» yoki «masshtabli belgilar» terminlari qo`llanilgan.

Chiziqli shartli belgilar bilan uzunligi karta masshtabida ifodalanadigan va uzunasiga davom etgan ob`ektlar – daryo, ko`l va dengizlarning qirg`oq chiziqlari, siyosiy-ma`muriy chegaralar, yo`llar, telefon hamda telegraf liniyalari va boshqa shu kabi ob`ektlar tasvirlanadi. Ular ob`ektlarni o`xshashlik belgilarini saqlab qoladi, lekin ob`ektning kengligini orttirib yuborishlari mumkin. Masalan, mayda masshtabli kartalardagi yo`llarni belgilari bunga misol bo`ladi.

Karta yaratishda shartli belgilarni tanlash va joyida ishlata bilish kerak. Shartli belgilar oddiy shaklda, mazmunga loyiq ravishda tanlanishi zarur, shu bilan birga hozirgi zamon texnologiyasiga mos bo`lish kerak. Kartografik korxonalarda maxsus shartli belgilardan iborat fotoalbom mavjud bo`lib, qayta tuzishda o`sha albomdan foydalaniladi.

Karta tuzishda legendaning ahamiyati kattadir, shuning uchun legenda kartaning kaliti deb ham yuritiladi. Chunki u karta mazmunini ochib beradi. Kartani

o`qishga kirishishdan aval uning legendasi bilan tanishiladi. Kartaning legendasi karta programmasi bilan birga ishlab chiqilib, karta tuzish nusxasi bilan birga beriladi.

Yer resurslarikartalarida legendasini asosiy mazmuni va uning qurish printsiplari.
Eng qiyin va ma`suliyatli ishlardan biri bu kartaning legendasini ishlab chiqish. Yer resurslarikartalarining legendasiga qo`yiladigan talablar bu faqatgina kartadagi berilgan shartli belgilarni tushuntirish emas, foydalanuvchiga kartani mazmunini o`qib tushunish uchun kerakdir. Legenda va karta agar shartli belgilar printsiplari bo`yicha bo`lsa karta yanada yaxshi o`qiladi. Masalan, birinchi siyosiy-ma`muriy bo`linishiga va har xil hududiy o`zgarishlarni ko`rsatishga kerak bo`ladigan shartli belgilar, gidrografik ob`ektlar beriladi, keyin aholi yashash joylari tasvirlovchi shartli belgilar va asosiy mazmuni tashkil qiladigan voqea va hodisalar uchun tanlangan shartli belgilar va hokazolar beriladi. Berilgan shartli belgilar guruhini joylashtirish tartibi kartaning mavzusiga bog`liq. SHunday qilib legenda kartaning mazmuniga bog`liq xolda alohida bo`limlarga bo`linadi va qulay va tushunarli bo`lishi uchun bo`limlar kerakli qismlarga bo`linadi. Bo`limlar ichida shartli belgilar xronologik tartibda joylashtiriladi.

Kartaning legendasida qoida bo`yicha kartaning maxsus mazmuniga kiradigan, barcha shartli belgilar shuningdek geografik asos elementlarini tasvirlovchi shartli belgilar matn bilan tushuntirib o`tiladi va geografik kartalarda beriladigan gidrografiya va boshqa elementlarning shartli belgilari legendaga asos bo`lib kiritiladi.


Yer resurslarikartalarini yaratish uchun kameral (laboratoriya holatida) sharoitda statistik malumotlar va kartografik manbalarni qayta ishlash va generalizatsiya qilish asosida o`rta va mayda masshtabli kartalarni tuzish.

KARTA NOMI

DIAGRAMMALAR VA JADVALLAR

SHARTLI BELGILAR

MASSHTAB



Kameral sharoitda karta yaratishda dalada yaratilgan plan va kartalarni, aerokosmik suratlarni, statistik ma'lumotlarni tahlil qilib, tuzilayotgan kartani mazmuni va maqsadiga loyiqlaridan foydalaniladi. Kameral sharoitda karta yaratishning birinchi bosqichi kartani loyihalash konsepsiyasini ishlab chiqishdan, dasturini tuzishdan va kerakli hamma xujjatlarni tayyorlashdan iboratdir. Bu bosqich karta loyahasini yaratish bilan tugallanadi.

Loyihada quyidagi jarayonlar o'z ifodasini topadi;

- kartaning maqsadi va unga qo'yiladigan talablar;
- karta yaratish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tanlash, tahlil qilish va baholash;
- kartasi tuzilayotgan hududni o'rganib, tasvirlanayotgan voqea va hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- karta dasturini tayyorlash.

Keyingi bosqich kartani tuzish, yani kartani dastlabki nusxasini tayyorlashda bajariladigan kompleks ishlar bo'ladi. Bunda chorvachilik agrosanoat kompleksi kartalarini tuzish uchun ishlatiladigan proetsiya, komponovka va masshtab, shartli belgilar tizimi tanlanib, generalizatsiya jarayonlari aniqlanadi. Bu bosqich quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- kerakli manbalarni tayyorlab, ularni qayta ishlash;
- kartaning matematik asosini ishlab chiqish;
- kartaning mazmuni va legendasini ishlab chiqish;
- dastlabki nusxa texnik jixatlarini tayyorlash, generalizatsiya qilish;
- kartani jihozlash;
- kartani tuzishning hamma bosqichlarida tahririy va tuzatish ishlarini olib borish.

Oxirgi bosqich - kartani nashrga tayyorlash va nashr qilish hamda uni ko'paytirishdan iborat (poligrafik yoki kompyuter grafikasi yo'li bilan). Karto-

grafiyada nashrga tayyorlash va nashr qilish jarayoni 2 ta bosqichga bo`lib o`rganiladi. Bu bosqich quyidagi jarayonlarni o`z ichiga oladi:

- poligrafik jarayonlarni taminlash uchun kartaning nashrli originallarini tayyorlash;
- bosma shaklini tayyorlash va dastlabki karta originalini (nusxasini) olish;
- karta tirajini chop etish;
- kartani nashr qilish nusxasini tayyorlash va uni nashr qilish barcha jarayonlarda tahririy va tuzatish ishlarini olib borish.

Yuqorida ko`rsatilgan ishlar bajarilib, ilmiy raxbar tomonidan mulohaza qilinib, tasdiqdan o`tgandan so`nggina karta loyihasi va dasturi asosida karta tuzish bo`yicha ishga kirishildi.

Kartalarni tuzish va nashr qilish asosiy bosqichlari

Kartani yaratish etaplari	Isharni bosqichlarga bo`linishi	Har bir etapdagi ishlar natijasi.
Loyihalash	-kartaga qo`yiladigan talablarni aniqlash va uning xomaki dasturini tuzish; -manbalarni to`plash, tahlil qilish va baholash; -kartada tasvirlanayotgan voqea va hodisalarni o`rganish; -karta dasturi (loyihasi)ni tuzish.	Karta dasturi (yoki loyihasi)
Tuzish	-manbalarnii tayyorlash va qayta ishlash; -kartaning birinchi originalini yaratish (matematik asosni yaratish, mazmunini manbalardan o`tkazish, uni generalizatsyaa va taxlil qilish).	Karta originali (dastlabki nusxasi)
Kartani nashirga tayyorlash	-nashr qilish originalini ishlab chiqish (yoki originallarini); -poligrafiya jarayonlarga xizmat ko`rsatish bo`yicha yordamchi ishlar; -shtrixli va rangli namunalarni ishlab chiqish.	Nashr qilish originallari va yordamchi maketlar

Nashr qilish	-bosma shakllarini ishlab chiqish va namunalarni olish; -kartani bosish (nashr qilish).	Karta bosilgan ottisklar
--------------	--	--------------------------


3.3. Yer resurslarini boshqarish va rejalashtirish amaliyotida kartografik tadqiqot usulini qo'llashni takomillashtirish yo'llari (GIS texnologiyasi asosida)

Hozirgi kunda GIS-texnologiyalari jadal suratda rivojlanib bormoqda, buning natijasida yangicha qarashlar, guruhlashlar, izohlashlar, o'lchash metodlari va boshqalar kelib chiqmoqda. Foydalanish soxasini kengligi jihatidan GISning tengi yo`q – u navigatsiya, transport, qurilish, geologiya, geografiya va xarbiy ishlar, mavzuli kartografiya va boshqa soxalarda keng qo'llanilmoqda. GISning jadal taraqqiy etishi, fikrimizcha aerokosmik zondlash, telekommunikatsion tarmoqlar, yer haqidagi fanlar hamda ularga yaqin bo'lgan sotsial-iqtisodiy fanlarning yanada rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Barcha GISlarda ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, hotirada saqlash, yangilash, tahlil qilish va ma'lumotlarni kompyuter yoki etarli darajada tasvir xususiyatini qayta ishlaydigan maxsus dasturli texnik vositalar orqali ushbu jarayonlan bajariladi.

Er resurslarini boshqarish va rejalashtirishda boshqa usullar qatori kartografik tadqiqot usulini ham o'rni beqiyosdir. Kartografik tadqiqot usuli – bu kartada tasvirlangan hodisalarni kartalardan foydalanib bilish usulidir. Kartalarda tasvirlangan hodisalarni tarkibini, bir-biri bilan bog'liqligini, dinamikasini va evolyutsiyasini vaqt va makonda o'rganish, rivojlanishini tahlil qilish, ular haqida turli miqdor va sifat ko'rsatkichli ma'lumotlar olishni anglatadi. Tadqiqotning kartografik usuli fanda va amaliyotda qo'llanishi xilma-xil. Xar bir fan soxasida borliqni tushunishda, amaliy ishlarda, loyihalashda, erlarni o'zlashtirishda, aholishunoslikda, tabiatni muhofaza qilishda va boshqa turli masalalarni echishda kartografik usul qaror qabul qilish vositasi stfatida xizmat qiladi.

Kartalardan foydalanish ularni tuzish bilan chambarchas bog'liq. Bu “kartani tuzish – undan foydalanish” chizmasida yaqqol ko'rinadi. Kartalarni tuzishda

ma'lumotlar manbasi sifatida atrof-muhit olinadi, kartalashritish ko'zatislar natijasi ma'lumotlarini tanlab kartaga aylantiradi va borliqning modeli tuziladi. Kartografik modellashtirish ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha murakkab ilmiy ishlar bajariladi, u yaqinlashritish, tahlil va sintez qilishlar bilan bog'liq.



Kartalarni yaratish va ulardan foydalanish tizimi

Bunday ishlar kartaning maqsadiga va kimlarga mo'ljallanganligiga, tadqiqotchiing bilim darajasiga, ob'ektning o'rganilganligiga, kartalashtirishning ilmiy metodologiyasiga, tasniflashning mantiqan to'g'riligiga, generalizatsiya darajasiga va h.k. bog'liq.

Kartalardan tadqiqot usuli sifatida foydalanish jarayonida ma'lumotlar qaytadan ishlanib, ishning maqsadiga, tadqiqotchining saviyasiga, tajribasiga va bir qancha boshqa ko'rsatkichlarga bog'liq. SHuni aytish kerakki, olib borilayotgan tadqiqotlar jarayonlari ma'lum darajada xatoliklarga ega. SHuning uchun olingan ma'lumotlar va xulosalar albatta real borliq bilan tekshirib ko'rilishi kerak, zarur bo'lganda ularga o'zgartirishlar kiritadi.


“Kartalarni yaratish va ulardan foydalanish” tizimida bir-biriga bog'liq ikkita usul mavjud:

1. Kartalashtirish yoki kartografik tasvirlash usuli – uning maqsadli real borliqdan kartaga o'tish demaktir (voqea va hodisalar modelini hosil qilish).
2. Tadqiqotlarning kartografik usuli – tayyor kartadan foydalanib borliqni bilish.

Yuqorida nomlari keltirilgan usullar bir-biri bilan chambarchas bog`liq. Kartalardan foydalanish imkoniyati boshqa kartalarni tuzish tartibininig ketma-ketlegini belgilaydi.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar va amaliy faoliyatda ko`plab GISlar ishlatilib, ular orasida shaxsiy GISlar keng tarqalgan. Jumladan ularga GeoDraw, GeoGraph (Geografiya instituti, Rossiya), AtlasGis (AQSH), ArcInfo, MapInfo (AQSH), Phonarama, AutoCAD va boshqa dasturlarni keltirishimiz mumkin.

GIS yordamida kartalar tuzish hozirgi kunda keng qo`llaniladi. Karta tuzishda GIS texnologiya an`anaviy qog`ozda nashr qilinuvchi karta variantlariga nisbatan qulayligi bilan ajralib turadi. Bunda GIS yordamida karta tuzishda dastlab kerakli ma`lumotlar yig`iladi. Dastlabki, birlamchi materiallar sifatida qog`oz ko`rinishida nashr qilinadigan kartalardan xam foydalaniladi. Bunda ushbu ma`lumotlar raqamli formatga keltiriladi.



GIS yordamida karta tayyorlash

GIS texnologiyasi asosida kartografik tadqiqot usulini qo`llashni takomillashtirish yo`llari va bu dasturlar yordamida kartalarni tuzish yo`llari ishlab chiqilgan. Jumladan MapInfo dasturiy ta`minoti orqali dissertatsiya mavzuimiga oid kartalarni ishlab chiqdik.

XULOSA

Yer resurslari kartalarining loyihasini ishlab chiqish, uning tarkibiy qismlarini to'g'ri joylashtirish va rivojlantirish har bir mintaqaning o'ziga hos tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart- sharoitlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Ushbu omillarni hisobga olish, ularning hozirgi paytdagi holatini baholash va shu asosda iqtisodiy rivojlanishining kelajak istiqbollarini yaratib berish bugungi bozor munosobotlariga o'tish davrining muhim vazifalaridan biridir. Ishlab chiqarishini tabiiy geografik sharoitdan kelib chiqib mutanosib ravishda to'g'ri tashkil qilish, yer va suv resurslari cheklangan mintaqada mavjud sug'oriladigan yerlarning mahsuldorligini oshirish, uni intensivlashtirishga tuproqning tabiiy meliorativ holatini yaxshilash orqali erishish, bu borada yangi texnika va texnologiyalar, ilg'or fan yutuqlarini qo'llash katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning samarasi ham ko'p jihatdan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning hududiy omilari va zahiralaridan qanchalik darajada unumli foydalanilishiga borib taqaladi. Bunda tarmoqning hududiy tuzilishi va agrar sektorning ixtisoslashuvi, tabiiy-iqlim sharoitlari, aholi soni, uning tarixiy tajribasi va an'analariga ahamiyat berish lozim bo'ladi. Ayniqsa, bu masalada hududi kichik, ammo aholisi tez o'sib borayotgan sug'oriladigan mintaqalarga alohida e'tibor berish muximdir.

Mazkur tadqiqot ishining natijalari shuni ko'rsatadiki, uning ob'yekti bo'lmish Yer resurslari kartalarni loyihasini ishlab chiqilishi va rivojlanish xususiyatlariga ko'ra o'ziga xos majmuadir. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining mustaqilikdan keyingi yillar tahlili uning kelgusidagi taraqqiyotida hududiy jihatdan to'g'ri tashkil etish, tarkibini sifat jihatidan takomilashtirish orqali aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan qator tadbirlar majmuasini ilmiy asoslash va amalga oshirish muhimligini ko'rsatadi. Ular yordamida voqea va hodisalar makon va zamonda tarqalishini ko'rgazmali ravishda ifodalanib, Yer va suv resurslarning joylanishi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkoni beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O‘zbekiston» 1997.
2. Atlas. O‘zbekiston Respublikasining Yer resurslari T., 2001.
3. R. Do‘stmurodov «Fermer xo‘jaliklarida soliq» T., 2004.
4. J.Maqsudov, G.Nagaev, I.Akromov, R.Qo‘ziev, A. Axmedov Tuproq xaritalari va yerlarni baholash hujjatlaridan foydalanish. T., 2000.
5. X.Namozov Haydaladigan yerlarning iqtisodiy bahosi. T., 2003.
6. X.Q.Namozov Yer resurslaridan foydalanishda yer kadastrining roli va tuproq unumdorligini oshirish yo‘llari. ToshDAU. T., 2001.
7. X.Q. Namozov, K. SHadramova, SH.Turdimetov Tuproq bonitirovkasi «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi». T., 2004.
8. A.Nig‘matov Yer huquqi. «Toshkent Islom Universiteti» 2001.
9. U. Norqulov, X. SHeraliev "Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasi". "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi". T., 2003.
10. Rasulov A., Ermatov A. - "Tuproqshunoslik dehqonchilik asoslari bilan" "O‘qituvchi". T., 1980.
11. Raxmonov Q. YAgona yer solig‘i. O‘zbekiston qishloq xo‘jalik jurnali. 2003/4. 8-9 b.
12. Sattorov D., Musaev B. Tuproqshunoslik, agrokimyo va melioratsiyaga oid xalqaro atamalar bo‘yicha ruscha-o‘zbekcha lug‘at. «Mehnat». T., 1992.
13. Tursunov L.T. "Tuproq fizikasi". "Mexnat". T., 1988.
14. Turopov I., Namozov X.Q-Yer kadastrini. T., 2003.
15. Uzoqov P., Boboxo‘jaev I. – «Tuproqshunoslik». «Mehnat». T. 1995.
16. SHadramova K.I., Namozov X.Q. Lalmikor tuproqlar bonitirovkasi, ularni iqtisodiy va qiymat bahosi. T., 2003.
17. O‘zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi», «Davlat yer kadastrini» to‘g‘risidagi qonunlari. T., 1998.
18. O‘zbekiston Respublikasi "Davlat yer kadastrini" to‘g‘risidagi qonun. T., 1998.

19. O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari holati to‘g‘risida milliy hisobot. T. 2014.
20. Qayumov F., Abdig‘aniev A., Maqsudov J., Akramov I., Tursunov A. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sifatiy, iqtisodiy va qiymat bahosini aniqlashning muvoqqat uslubi. T., 2002.
21. Qurbonov E. "Respublikadagi sug‘oriladigan yerlarning holati va ulardan samarali foydalanish. Sug‘oriladigan bo‘z tuproqlar unumdorligini oshirish va uning ekologik muammolari". Ilmiy to‘plam. Samarqand. 2002.
22. Qurbonov E.Q., Bobojonov A.R, Rahmonov R.K. yer kadastri asoslari. T., 1999.
23. Qurbonov E., Qo‘ziev R., Bo‘riev X., Fafurova L. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari va ulardan samarali foydalanishning ilmiy, huquqiy, me‘yoriy va amaliy asoslari. T., 2001.
24. Qo‘ziev R.Q. "O‘zbekiston Respublikasi sug‘oriladigan yerlarining hozirgi holati. Sug‘oriladigan bo‘z tuproqlar unumdorligini oshirish va uning ekologik muammolari". Ilmiy to‘plam. Samarqand. 2002.
25. Qo‘ziev R.Q., Abdullaev S.A., Abdullaev A., Sattorov J.S. va boshqalar. Sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy takliflar. T., 2002.
26. G‘afurova L.A., SHadramova K., Namozov X.Q. Tuproq bonitirovkasi. T., 2000.
27. G‘afurova L., Abdullaev S., Namozov X. Meliorativ tuproqshunoslik. T., 2003.
28. G‘afurova L., Maxsudov X., Namozov X. O‘zbekiston tuproqlari va ulardan samarali foydalanish. T., 2003.
29. 1998-2000 yillardagi davrda qishloq xo‘jaligi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirilishi dasturi.
30. Plewe B. GIS Online: Information Retrieval, Mapping, and the Internet. - Geoinformation, International, Cambridge, UK, 1997. - 311 p.
31. Robinson A.H., Morrison J.L., Muchrcke P.C., Kimerling A.J., Guptil S.C. Elements of Cartography, 6th ed. New York Wiley & Song, 1995. - 450 p.

32. <http://map.igras.ru/>
33. <http://www.dataplus.ru/Industries/12KartGd/GIS.htm>
34. http://www.dataplus.ru/Arcrev/Number_48/1_Kart.html
35. http://www.dataplus.ru/Arcrev/Number_48/24_CHehi.html
36. <http://gisa.ru/51782.html?action=print>
37. <http://geography.in.ua/index.php?rowstart=33>
38. <http://www.gis-center.kz/pmain/Default.aspx?page=prigl&lang=ru>
39. <http://gisexpert.ru/>
40. http://www-sbras.nsc.ru/win/gis_new/lib/reports/99/knc-gis99.htm#1p
41. <http://www.topcon.gsi.ru/art.php?id=17>
42. <http://www.gisa.ru/7585.html>

ILOVALAR